



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN SAUDIYA ARABISTONIDA BO‘LADI

Ikki muqaddas masjid xodimi – Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo – Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” formatidagi birinchi sammitda ishtirok etish uchun joriy yil 18-19-iyul kunlari Jidda shahrida bo‘ladi.

Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvda Saudiya Arabistoni Podshohligi, Bahrayn Podshohligi, Qatar Davlati, Kuvayt Davlati, Birlashgan Arab Amirliklari, O‘mon Sultonligi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston rahbarlari hamda kengashning bosh kotibi ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Kun tartibiga muvofiq, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini yuzasidan fikr almashiladi.

Sammit doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

O‘ZA

“MARKAZIY OSIYO – KO‘RFAZ ARAB DAVLATLARI HAMKORLIK KENGASHI” FORMATI

ZAMONAVIY SHAROITDA
MINTAQALARARO HAMKORLIKNING
ISTIQBOLLI YO‘NALISHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” formatidagi birinchi sammitda ishtirok etish uchun joriy yil 18-19-iyul kunlari Jidda shahrida bo‘ladi.

1981-yil 25-mayda tashkil etilgan Ko‘rfaz Arab davlatlari hamkorlik kengashi mintaqaviy tashkilotiga Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Kuvayt, Qatar, O‘mon va Bahrayn kiradi. Ushbu davlatlar uglevdorodlar yetkazib beruvchi yetakchi mintaqa va nufuzli jahon moliya markazi hisoblanadi.

Tashkilotning asosiy maqsadi siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik va integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish, ya‘ni iqtisodiy va moliyaviy masalalar, ta‘lim va madaniyat, ijtimoiy, sog‘liqni saqlash, ommaviy axborot vositalari va turizm, qonunchilik va boshqaruv muammolari kabi sohalarini tartibga solishdan iborat. Kengash, shuningdek, sanoat, qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini muhofaza qilish sohalarida ilmiy va texnologik taraqqiyotni rag‘batlantiradi.

Qo‘shma iqtisodiy kelishuv shartlariga ko‘ra, olti davlat o‘rtasida tarif to‘siqlari bekor qilingan. Ular o‘zaro

kelishuvga muvofiq, istalgan davlatda teng shartlar asosida ishlab chiqarish korxonalarini ochish va shartnomalar tuzish huquqiga ega.

Tashkilotning asosiy organlari — har yili yig‘iladigan Davlat rahbarlarining Oliy kengashi va har uch oyda bir marta o‘tkaziladigan Tashqi ishlar vazirlari kengashi hisoblanadi.

Kengash Bosh kotibiyatining shtab-kvartirasi Saudiya Arabistoni poytaxti — Ar-Riyozda joylashgan.

Dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat, global siyosiy, harbiy, iqtisodiy va moliyaviy muammolar va tahdidlar hamda ularning fonida Markaziy Osiyoning xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash masalalari hamkorlik geografiasini yanada diversifikatsiya qilish, shu jumladan, arab dunyosi mamlakatlari bilan aloqalarni kengaytirish, shuningdek, mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish va mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Davomi 2-betda



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI



ISLOHOTLAR RUHI VA SHUKUHI

JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI UCHUN ASOS BO‘LMOQDA
(Prezident Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimidagi nutqidan keyingi o‘ylar)

Joriy yil 14-iyul yangi O‘zbekiston tarixida yana bir muhim kun sifatida qoldi. Shu kuni ko‘pmillatli xalqimiz qat‘iy siyosiy irodasi bilan saylagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida nutq so‘zlab, yaqin istiqboldagi taraqqiyot yo‘limizning bosh maqsadlarini belgilab berdi.



“O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, o‘z murod-maqsadlariga albatta yetadi”, dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, biz yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lidagi yaqin tariximizda o‘zgarishlar qudratini yaxshi anglab yetmoqdamiz. O‘z navbatida, shuni ta‘kidlash joizki, har bir ishning boshlanish pallasini ta‘minlash muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishini o‘tkazdi.

odil sudlovni ta‘minlash borasidagi ishlar bugungi qiyofasi qanday shakllandi, o‘zgarishlar qachon boshlandi, degan savol berilsa, javobimiz tayyor.

2017-yil 13-iyun. Shu kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida sud organlari tizimida odil sudlovni ta‘minlash borasidagi ishlar ahamiyati, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishini o‘tkazdi.

O‘sha yig‘ilishda davlatimiz rahbari sud hokimiyati mustaqilligini amalda ta‘minlash, uni jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan, jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarning muhim vositasi bo‘lgan institutga aylantirishga qaratilgan qator tarixiy tashabbuslarni ilgari surdi.

Biz bu uchrashuvni nima uchun tarixiy, deyaqimiz. Boisi, men 57 yildirki,

shu sohada mehnat qilib kelyapman, lekin biror marta davlat rahbari va sudyalarning o‘rtasidagi bunday ochiq, samimiy muloqotni ko‘rmadim. Eng muhimi, shu uchrashuvda davlat rahbari ilgari surgan xalqparvar tashabbuslar sud hokimiyati tizimida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi.

Davomi 3-betda



XORIJDAGI VATANDOSH

Olislarda ham ONA YURT BILAN BIRGAMIZ

Vatan tuyg‘usi nima? Bu savolga har kim turlicha javob beradi. Ammo chinakam Vatan tuyg‘usini yurtidan olisda yashab, boshqa davlatlarda o‘qiyotgan yoki rizqini terib yurgan insonning ko‘zlarida ko‘raman, desam ishonaverim.

Davomi 5-betda



DIL IZHORI



“Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o‘zgargani, uning qalbida o‘ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo‘lgani — bu bizning eng katta yutug‘imiz.

O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, o‘z murod-maqsadlariga albatta yetadi...

Ishonchim komil, barchamiz birgalikda yangi O‘zbekistonni — inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta quramiz!”

XALQIM DEGAN INSONNI EL-YURT DOIM QO‘LLAYDI

Davlatimiz rahbarining shu yil 14-iyul kuni o‘z lavozimiga yangidan kirishish tantanali marosimidagi nutqidagi bu kabi fikrlar, xulosalar, davlatlarning barchasi chuqur hayotiy asoslarga ega. “O‘tgan besh-olti yilda hayotimizda nima o‘zgardi?” degan

savolga bugun minglab qishloq-mahallalar qiyofasidagi yangilanishlar, o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashayotgan insonlar turmushidagi ijobiy o‘zgarishlar misolida yetarlicha javob aytish mumkin.

Davomi 2-betda



TASHABBUSLI BUDJET



G‘OLIB BO‘LISH UCHUN 1,5 MING OVOZ YETARLI BO‘LADI



OpenBudget

O‘zbekiston Respublikasi
“Ochiq Budget” Portali

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 17-iyul kuni “Tashabbusli budjet” jarayonining joriy yilgi ikkinchi mavsumiga start berildi. Uning birinchi bosqichida — 17-iyuldan 6-avgustgacha fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalar shakllantiriladi, ikkinchi bosqichida — 6-avgustdan 26-avgustgacha bu takliflar maxsus komissiya tomonidan saralab olinadi va 26-avgustdan 15-sentabrgacha loyihalarga ovoz berish jarayoni — uchinchi bosqich o‘tkaziladi.

Mazkur jarayon yakunlariga ko‘ra, har bir hududda eng ko‘p ovoz to‘plagan loyihalar g‘olib deb topiladi va ular berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib, yuqoridan pastga qarab saralanadi hamda moliyalashtiriladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, ikkinchi mavsum uchun tuman (shahar) budjetlari hisobidan 1 trilyon so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘natirilishi va ular mavsum yakuniga qadar ortib borishi kutilmoqda.

Davomi 4-betda

DIL IZHORI

XALQIM DEGAN INSONNI EL-YURT DOIM QO'LLAYDI

Prezident bobo, Siz uchun juda ham xursandman. Nafaqat men {quvonchdaman}, balkim butun O'zbekistonda bayram. Men ham Siz kabi bilimli, tashabbuskor, g'ayratli bo'lib, Vatanimga munosib farzand bo'lishga va'da beraman. Sizni o'zim va oilamiz nomidan Prezident saylovida qozongan g'alabangiz bilan chin ko'ngildan tabriklayman".

Boshlanishi 1-betda

"Inson qadri uchun!" g'oyasining amaliy natijalarini o'z kundalik hayotida his qilayotgan yurt-doshlarimiz safi kundan-kun kengayib borayotgani uchun ham Prezident saylovida Shavkat Mirziyoyev nomzodini ikki partiya qo'llab-quvvatladi, 87,05 foiz saylovchi tanladi. Bunday yorqin g'alaba davlatimiz rahbarining yangi, qudratli va buyuk O'zbekiston asoslarini barpo etish, inson huquq-erkinliklarini, xalq manfaatini ta'minlash yo'lidagi beqiyos xizmatlari, ichki-tashqi siyosatdagi tarixiy o'zgarishlarni xalqimiz chuqur e'tirof etib, faol dastaklayotganining yana bir isbotidir.

Shavkat Mirziyoyevning saylovdagi ishonchli g'alabasi, o'z lavozimiga yangidan kirishishi munosabati bilan Prezident virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga yurtdoshlarimizdan kelayotgan ko'plab tabrik va minnatdorlik maktublarida ham ana shunday ruh yaqqol sezilib turibdi.

Maktublarni o'qir ekanmiz, mualliflar orasida turli hudud, yosh va millat vakillarini uchratish tabiiy, albatta. Ularda el-yurt ravnaqiga doxil turfa qarashlar, misollar, takliflar, tilaklar bayon etilayotgani, yurtimiz fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanayotgani, bugungi insonparvar siyosat avlodlar va millatlarni yangi O'zbekistonda barpo qilishdek yagona katta maqsad yo'lida bir mustahkamlashtirilayotgani ham eng hayotiy dalillardan biri, aslida.

Dejlik, ko'p yillar Kattaqo'rg'on tumanidagi Payshanba shaharchasida mahalla raisi bo'lib ishlagan mehnat faxriysi Qamariddin Ahmedov davlatimiz rahbarini saylovdagi ishonchli g'alabasi bilan samimiy tabriklar ekan, mamlakatimizning barcha hududi qatori Kattaqo'rg'on ham yirik bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganini ta'kidlaydi: "...Birgina bizning tumanni olsak, shu kunlarda yirik sement zavodi ishga tushadi. Bu bilan yiliga qariyb 3 million tonna eksport sement ishlab chiqariladi, 600 nafar qorako'zimiz ishli bo'ladi, daromadli bo'ladi, kamida 600 ta oila ro'zg'orining kami to'ladi, biri ikki bo'ladi. Yoki yaqinda 220 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi ish boshlashi bilan elektr energiyasidagi tizimli masalalar hal qilinadi. Muhtaram Shavkat Miromonovich, yangilangan Konstitutsiyamiz asosida ochiq, shaffof o'tgan saylovdagi ishonchli g'alabangiz xalqimiz hayotidagi mana shunday tarixiy o'zgarishlar bardavom bo'lishini, el-yurtimizning yana 7 yil barqaror rivojlanishini to'liq kafolatlab berdi".

Qashqadaryolik mehnat faxriysi Botir Rahimovning voha nuroniylari nomidan yo'llagan tabrik xatida ham xalqimizning bu tanlovi zamirida so'nggi olti yilda erkin, obod va farovon hayot yaratib berish yo'lidagi islohotlarning amaliy natijalari mujassam ekaniga urg'u beriladi: "...Yangi O'zbekistonda yangicha dunyoqarash bilan yashash, odamlarning hayotdan rozi bo'lishi yo'lida olib borilayotgan xalqparvar siyosat, olib borilgan ishlar uchun Sizga cheksiz minnatdorlik bildiraman. Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishda yuksak namuna bo'lmoqdasiz. O'z navbatida, biz, nuroniylar ham yoshlar tarbiyasi, ta'lim, oilalar mustahkamligi, obodlik-ozodlik ishlari, tomoqalardan foydalanish va boshqa masalalarda jamoatchilik ishlari olib borishda tashabbuskor bo'lamiz".

Chiroqchi tumani Qahramon mahallasida yashovchi 97 yoshli Temur Jumanov, Urganch shahrida yashovchi 92 yoshli Ro'zmat Xudoyberganov, g'allaorolik 88 yoshli Salohiddin Nazarov singari ko'plab nuroniylarimizning duoyi sa-lomga to'la maktublarida xalqimiz shak-shubhasiz uzoqni ko'ra oladigan eng yetuk siyosiy yetakchini, dono rahbari tanlagani tufayli ham mamlakatimizdagi tinchlik, jamiyatimizda qaror topgan do'stlik-birdamlik muhiti, avlodlar o'rtasidagi mustahkam rishta ko'p millatli xalqimizni yangi O'zbekistonda barpo etishdek buyuk maqsad yo'lida birlashtirayotgani aytiladi.

"Siz rahbar bo'lganingizdan so'ng inson qadri tiklandi. Tashabbusingiz va yordamingiz bilan ko'plab vatandoshlarimiz qatori davlatimiz hisobidan muborak Haj amallarini ado etdim. Safar davomida boshqa davlatlardan kelgan ziyoratchilar bilan gurung qilganimizda, ular ham O'zbekistonimiz rivoji, sizning dono siyosat-ingiz haqida ko'p iliq gaplarni aytdi. Bundan barchamiz g'ururlandik va 9-iyul kuni islohotlaringiz davom etishi uchun ham ovoz berdik", deyiladi Mirzacho'l tumani Yerjar mahallasida yashovchi Latif Turatov tomonidan yo'llangan maktubda.

Qoraqalpog'istonning Kegeyli tumani Juzimbog' ovulida yashovchi Ahmad Abdul-layev, Nukus shahri G'arezsizlik mahalla-si turg'uni Nina Ryabkina, To'rtko'ning Tozabog'yo mahallasidan Flyura Temirova maktublarida esa so'nggi 6 yilda Orolbo'yi aholisi-ga ko'rsatilayotgan doimiy mehr-e'tibor va yuksak g'amxo'rlik, farovon yashash, ta'lim olish, davolanish, tadbirkorlik qilish uchun eng ko'p imkoniyat va imtiyozlar taqdim etilgani uchun samimiy minnatdorlik bildirilgan.

"Hurmatli Shavkat Miromonovich!


O'zbekiston xalqi uchun oqilona irodangiz, bilim-ingiz va kuch-g'ayratingizni ayamasdan mehnat qilyapsiz. Barcha yoshdagi va qatlamdagi insonlar-ga o'z hayotini o'nglab olishi uchun katta imkoniyat va teng sharoit yaratdingiz. Xalqimiz Sizdan doimo minnatdor. O'zbekistonimiz yanada go'zal va kuchli bo'lishi uchun hamisha yoningizda turamiz, tin-may mehnat qilamiz", deyiladi Ellikqal'a tumani "Sariyib" ovul fuqarolar yig'inida yashovchi Xudoybergan Ro'zimovning maktubida.

Andijon viloyati Asaka tumani Yangisor mahallasida yashovchi Xursandoy Qurbonova esa Shavkat Mirziyoyevga ovoz berganini hayotidagi eng murakkab pallada davlatimiz katta yordam ko'rsatgani bilan izohlaydi: "2020-yili pandemiyada, sinovli kunlarda Prezidentimiz bizni otalar-cha qo'llab-quvvatladi, davlatimizdan doimiy yordam oldik, mehr ko'rdik. Eng og'ir paytda yana hayotga qaytargan bunday ko'mak va e'tiborni bir umr unutmaymiz. Siz bilan faxrlanamiz, doim duo qilamiz". Samarqand shahri Zargartepa mahallasida yashovchi Ravshan Mamatqulov tabrigida "2016-yilgacha xalq dardini hech kim eshitmagan. Barcha bo'g'indagi rahbarlarni yerga tushirib, od-diy odamlarni eshitishga, ularga yordam berishga o'rgatganingiz uchun ham Sizdan minnatdorim", deyiladi, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani Bobotog' mahallasida yashovchi Zafar Mahman-azarov maktubida "Og'ir sharoitdagi insonlarga doimiy yordam ko'rsatilayotgani, adolatli, xalqpar-var, kambag'alparvar Prezident bo'lganingiz uchun ham Sizga katta rahmat aytamiz, barchamizning suyangan tog'imizsiz", deya ta'kidlanadi.


Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani Qo'rg'on-cha mahallasi Yakkatut ko'chasida yashovchi 9 yoshli Shahzodaxon Komiljonovanning shu yil 10-iyuldagi maktubi esa "Assalomu alaykum, mening Prezidentim, Sizga va'da berganimdek...", deb boshlanadi. Qizaloq va'dasi mazmunini tushunish uchun esa 7-iyul sanasiga qaytamiz. Chunki o'sha kuni qo'shtepalik Kamoliddin Jiyonov tumandagi Xalq qabulxonasiga 9 yoshli qizi Shahzodaxonning dav-lat rahbariga yozgan maktubini olib kelib topshirgan (bu xat Virtual qabulxona tizimida 7-iyul kuni soat 14:28 da 65285-xq/23 raqami bilan ro'yxatga olingan).

Xatni o'qiyamiz: "...Sizni doimo televidzorda ko'raman. Dadam aytdilar{ki}, davlatni boshqarish uchun katta bilim, tajriba va kuch kerak ekan. Siz mening qahramon-imisiz. Bizning ko'chalar ham chiroyli asfalt qilindi. Yoritish tizimlari {yangi bo'ldi} va boshqa yaxshi ish-lar amalga oshirildi... 9-iyul kuni saylovda men ham ishtirok etaman, {ya'ni oila a'zolarim bilan birga boraman}, albatta. Lekin {ovoz berishga} yoshim yetmas ekan. Biz oila-miz bilan Sizga ovoz beramiz. Siz, albatta, g'alaba qozonasiz va mening Prezidentim bo'lib qolasiz. Hurmat bilan, qizingiz Shahzodaxon. 2023-yil, 7-iyul".

Oradan uch kun o'tib, Prezident sayloving eri-tasi kuni, ya'ni Markaziy saylov komissiyasi say-



lov natijalarini e'lon qilganidan so'ng qizaloq yana davlat rahbariga maktub yo'llaydi (har bir muro-jaat o'rganib chiqilishi uchun 15 kun muddat zarur bo'lishini hali bilimgan qizaloq ikkinchi maktubida uch kun avval topshirgan birinchi xatining taqdiri bilan ham qiziqadi). Tabrik xatini o'qiyamiz: "...Va'da berganimdek, barchamiz Sizga ovoz berdik. Saylovdan oldin ham Sizga omad tilab xat yoz-gandim. Yetib bordimi? Prezident bobo, Siz uchun juda ham xur-sandman. Nafaqat men {quvonchdaman}, bal-kim butun O'zbekistonda bayram. Men ham Siz kabi bilimli, tashabbuskor, g'ayratli bo'lib, Vatanimga munosib farzand bo'lishga va'da beraman. Sizni o'zim va oilamiz nomidan Prezident saylovida qozongan g'alabangiz bil-an chin ko'ngildan tabriklayman".



Albatta, bunday samimiy dil izhorlariga to'la tab-riknomalar ko'p. Aytaylik, Qoraqalpog'istonning Kegeyli tumani Gujimterek mahallasidan Ras-bergen Uzoqov, Nukus shahri Xalqlar do'stligi mahallasidan Elmira Qoraboyeva, Farg'ona viloyati So'x tumani Devayron mahallasida yashovchi Qambarali Hojiqurbonov, Quva tumani Sanoatchilar mahallasidan Jamilaxon Abdu-rahimova, Jizzax viloyati Do'stlik tumani Manas mahallasidan Jilil Kenjayev, Zomin tumani Ulug'bek mahallasidan Muzaffara Siddiqova, Forish tumani Osmonsoy mahallasidan Zarifa Umurova, Qashqadaryo viloyati Shahrizabz shahri Kamolot mahallasida yashovchi Ziyoda Rahimova, Yakkabog' tumani Mustaqillik mahal-lasidan Bahodir Norboyev, Xorazm viloyati Sho-vot tumanidan Umidjon Allaberganov, Hazorasp tumani Temirchi maskani mahallasidan Gulnoza Sharipova, Surxondaryo viloyati Sherobod tu-mani Kattahoyt mahallasidan Rezeda Ahmed-shina, Sariyoshi tumani Turmushobod mahal-lasidan Dilorom Hamzayeva, Sirdaryo viloyati Shirin shahri Farhod mahallasidan Shavkat Sultonov, Oqoltin tumani Saxovat mahallasidan Sitara Quvonova, Andijon viloyati Oltinko'l tu-mani Ayrorchik mahallasidan Bahodir Hakimov, Namangan viloyati Pop tumani Uyg'ur mahalla-sidan Xayriddin Usmonov, Buxoro shahri Zaraf-shon mahallasidan Mehrojiddin Saidov, Navoiy viloyati G'ozg'on shaharchasi Shayxon mahalla-sidan Kamola Ziyodullayeva, Samarqand viloyati Ishtixon tumani Minglar mahallasidan Eldor Xolmurodov, Toshkent viloyati Oimaliq shahri Mirzo Ulug'bek mahallasidan Oynisa Abdiyeva, Toshkent shahri Chilonzor tumani Ko'rkam ma-hallasidan Janna Aikova, Yangiyo'l tumani Chorboq mahallasidan Gulchehra Nabiulina kabi minglab yurtdoshlarimizning tabrik va minnat-dorlik maktublarida o'tgan olti yilda mamlakatimizda ro'y bo'lgan tarixiy o'zgarishlar, odamlarning real hayotidagi yangilanishlar bois, davlatimiz rahbari Prezident saylovida yorqin g'alabaga erishgani aniq misollar bilan e'tirof etilib, bu insonparvar, xalqchil va adolatli islohotlar yangi bosqichi ham muvaffaqiyatli amalga oshirishga katta umid-ishonch bildirilgan.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbari nomiga yo'llangan maktublar bilan tanishar ekanmiz, yurtimizning turli hududlarida yashayotgan, har xil soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan vatandoshlarimizni yangi O'zbekistonning buguni va kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonch, Prezidentimizga cheksiz mehr, yuksak hurmat va kuchli sadoqat tuyg'ulari birlashtirib turganiga amin bo'lish mumkin. Shunda asrlar sinovidan o'tgan qoyim haqiqatlardan biri ong-qalbmizda jarang sochadi: xalqim degan insonni el-yurt doim qo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi ma'lumotlari asosida Umid YOQUBOV tayyorladi.

"MARKAZIY OSIYO - KO'RFAZ ARAB DAVLATLARI HAMKORLIK KENGASHI" FORMATI

ZAMONAVIY SHAROITDA MINTAQALARARO HAMKORLIKNING ISTIQBOLLI YO'NALISHI

Boshlanishi 1-betda

Shu nuqtayi nazardan, tashkilotga a'zo davlatlar bilan ushbu sohalar, shuningdek, ilmiy yo'nalishda o'zaro hamkorlikni kengaytirish va faollashtirish juda muhim hisoblanadi. Markaziy Osiyo va arab davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning bugungi darajasi, aslida, yangilik emas. Ushbu aloqalar tarixning barcha davrlarida mavjud bo'lgan. Biroq turli omillar, jumladan, tarixiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqalar tufayli ular hozirgidek yaqin kechmagan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi sarmoyaviy faollik va iqtisodiy o'sishning muhim markazlaridan biriga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Ekspertlarning fikricha, mintaqada davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti so'nggi besh yilda 20 foizga o'sib, 340 milliard dollardan oshdi. Aynan so'nggi yillarda kuzatilgan yuqori darajadagi o'sish tufayli mintaqamamlakatlari "Markaziy Osiyo +" mul-qot formati doirasida yetakchi davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishda o'ziga xos umumiy yondashuvni ishlab chiqdi.

Hozirgi bosqichda Markaziy Osiyo va Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik keng-gashi mamlakatlari o'rtasidagi strategik hamkorlikning rivojlanishiga o'rtadagi masofa bir oz to'sqinlik qilmoqda. Biroq bu holat qo'shma infratuzilma va energe-tika loyihalarini amalga oshirish uchun to'siq yaratmayapti. Ushbu jarayonni jadallashtirish uchun har ikki hududda investirlarni faollashtirish zarur. Bu esa ularning yangi imkoniyat va ishbil-monlik muhitidan xabardor bo'lishini talab qiladi. Shuningdek, biznes ham-jamiyatlari uchun an'anaviy va qayta tiklanadigan energiya va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarga kapital va tajribaga ega uchinchi tomon investirlarni jalb qilish orqali investitsi-yalarni diversifikatsiya qilish imkoniyati-ni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarning aytishicha, ushbu sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat-xususiy sheriklikni jalb qilish va qo'llab-quvvatlashi kerak. Eng qiyin vazifalardan biri bu Kengashga a'zo davlatlar bilan transport va tranzit aloqalarini ta'minlashdir. 2022-yil sentyabr oyida Ar-Riyozda tashqi ishlar vazirlari darajasida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz Arab

66 KO'RFAZ DAVLATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHI, MOLIVAVIY VA SARMOYAVIY SALOHİYATI SHAROITIDA SAUDIYA ARABISTONI, BAA, QATAR, KUVAYT, BAHRAYN VA O'MON DAVLATLARINING JAHONDAGI MUHIM VA ISHONCHLI HAMKORLAR SIFATIDAGI ROLI ORTIB BORMOQDA. O'Z NAVBATIDA, "MARKAZIY OSIYO — KADHK" FORMATIGA BO'LGAN IKKI MINTAQI DAVLATLARINING QIZIQISHI O'ZBEKISTON YETAKCHI O'RINI EGALLAYDIGAN MARKAZIY OSIYO MINTAQASINING AHAMIYATI HAM ORTIB BORAYOTGANIDAN DALOLAT BERADI.

davlatlari hamkorlik kengashi" strate-gik muloqotining birinchi yig'ilishida ishtirokchilar umumiy qadriyatlar va o'zaro manfaatlariga asoslangan kuchli hamda istiqbolli sheriklik va xalqlar o'rtasidagi chuqur tarixiy aloqalar, mav-jud siyosiy va iqtisodiy ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yishga qat'iy tay-yor ekanliklarini bildirdi. Uchrashuv davomida vazirlar global iqtisodiyotni tiklash, COVID-19 pan-demiyasi keltirib chiqargan iqtisodiy

ta'sirni bartaraf etish, ta'minot zanjirlari barqarorligini, transport va tranzit alo-qalarini, oziq-ovqat, energetika va suv xavfsizligini ta'minlash, toza energiya manbalari va texnologiyalari, shuning-dek, ekologik muammolarni hal qilishni rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish masalalarini muho-kama qildi. Yig'ilish yakunlari bo'yicha vazirlar Markaziy Osiyo va Ko'rfaz arab dav-latlari hamkorlik kengashi davlatlari

o'rtasida siyosiy va xavfsizlik masa-lalari, iqtisodiy va sarmoyaviy hamkor-lik, xalqlarimiz o'rtasidagi munosabat-larni kengaytirish, shuningdek, ishbil-larmon doira vakillari o'rtasida sama-rali hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 2023-2027-yillarga mo'ljallangan strategik muloqot va hamkorlik bo'yicha Qo'shma harakatlar rejasi tasdiqladi. Ayni paytda O'zbekiston tashkilotga a'zo davlatlar bilan barcha sohalarida aloqalarni faol rivojlantirmoqda. Oliy va yuqori darajadagi tashriflar almashi-lyapti. Xususan, joriy yilda Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad OI Soniy dav-lat tashrif bilan mamlakatimizga keldi. 2019-yil mart oyida davlatimiz rahbari-ning BAA va 2022-yilda Saudiya Arabis-toniga rasmiy tashriflari bo'lib o'tdi. Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda ushbu tuzilmaga a'zo mamlakatlar bilan o'zaro tovar ayirboshlash hajmi keskin oshib, amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar soni ortib bormoqda. Biroq O'zbekistonning tashkilot mamlakatlari bilan umumiy savdo aylanmasi bugungi kunda mavjud salohiyatga javob ber-maydi. Jumladan, 2022-yil yakunlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich qariyb 870 mil-lion dollarni tashkil etdi. Turli darajadagi

tashrif va muzokaralar natijasida eri-shilgan kelishuvlarni amalga oshirish, yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish jarayonini jadallashtirish o'zaro savdo va sarmoyaviy hamkorlik hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bunda siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmidan foydalanish, shuning-dek, Saudiya Arabistoni, BAA, O'mon va boshqa davlatlar bilan savdo-iqti-sodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar yo'nalishlar bo'yicha Hukumatlar-aro qo'shma komissiyalar ishini faol-lashtirish ko'p jihatdan yordam berishi mumkin. Muxtasar aytganda, Ko'rfaz davlatla-rining iqtisodiy rivojlanishi, moliyaviy va sarmoyaviy salohiyati sharoitida Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Kuvayt, Bah-rayn va O'mon davlatlarining jahondagi muhim va ishonchli hamkorlar sifati-dagi roli ortib bormoqda. O'z navbatida, "Markaziy Osiyo — KADHK" formatiga bo'lgan ikki mintaqada davlatlarning qizi-qishi O'zbekiston yetakchi o'rinni egal-laydigan Markaziy Osiyo mintaqasining ahamiyati ham ortib borayotganidan dalolat beradi.

BUYUK O'ZBEK YO'LI

Yangi O'zbekistonda inson qadriini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan katta islohotlar va ularning huquqiy asoslari haqida gapirganda, bu kabi olijanob maqsad zamirida "Inson – jamiyat – davlat" degan buyuk g'oyaning hayotiy ifodasini ko'ramiz.



ISLOHOTLAR RUHI VA SHUKUHI

JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI UCHUN ASOS BO'LMOQDA

(Prezident Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimidagi nutqidan keyingi o'ylar)



Ubaydulla MINGBOEV, O'zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist

Boshlanishi 1-betda

Bu haqda batafsil so'z yuritishdan oldin bugungi jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos solgan islohotlar mazmun-mohiyatiga nazar tashlasak.

Bugun hech bir soha yo'qki, tubdan o'zgaragan bo'lsin. Tashqi siyosat nuqtayi nazaridan, qo'shnilarimiz bilan do'stona munosabatlarni tiklandi. Avvallari yaqin qarindoshlarini ko'rish ilinjida fuqarolarimiz chegaradan o'tolmay yig'lab o'tirardi.

O'zbekistonda 30-50 yillab muqim yashagan hamyurtlarimiz fuqarolik ololmay sarsan, chorasiz edi. Bugun ular sarsan yo chorasiz emas. Minglab shunday hamyurtlarimiz O'zbekiston fuqarosi, degan yuksak sharafga erishdi. "Endi men ham O'zbekiston fuqarosiman, saylanaman, saylovda ovoz beraman", deya farzandlarini quchoqlab yig'lagan odamlarni ko'rdik.

Toshkentda "propiska"ga doir mantiqsiz siyosat-chi? O'zimizning mamlakat ichida erkin harakatlanma olmas edik. Bu yashash huquqini cheklashmi? Cheklash. Bu katta adolatsizlikmi? Ha.

Yoki yana bir hayotiy misol. Oradan uch-to'rt yil o'tib, yaqinda Denovga bordim. Tuman markazidagi qurilishlarni ko'rib hayratim oshdi. Toshkentdan hech farq qilmaydi. Bu ham mayil. Denovda tog'li qishloqlar ham ko'p. Yaqin-yaqingacha bilganim — bu qishloqlarda odamlar uchun eng qulay transport ot yo'eshak edi. Chunki ularda avtomobil yo'llari yo'q edi-da. Qarang, uch-to'rt yil ichida bu manzillarga borish uchun shunday ravon yo'llar qurilibdi, ko'rib havas qilasiz. Beixtiyor "Ha, bo'lar ekan-ku", deysiz.

Har bir oila e'tiborda bo'lgan yana bir mehri siyosat haqida ham aytmasak bo'lmas. Bugun davlatimizning xalqchil siyosati har bir oilaga kirib boryapti. Gap shundaki, Prezidentimiz odamlar tomorasidan daromad olishigacha e'tibor beryapti. Bu shunchaki oddiy gap emas. Buning zamirida katta mehri siyosat turganini unutmasligimiz kerak.

Davlatimiz rahbari gender tenglik masalasiga ham alohida e'tibor qaratib keladi. Tariximizga bir nazar tashlasak, uddaburon ayollarni, analarimiz ko'p bo'lganiga ishonch hosil qilamiz. Ular ijodkor, rahbar, siyosiy yetakchi, Vatan himoyachisi bo'lgan. Bugun ham opa-singillarimiz, qizlarimiz, nevaralarimiz vujudida o'sha mard va jasur, fidoyi va tadbirkor momolarimiz qoni oqmoqda. Shuning uchun bugungi O'zbekiston xotin-qizlari — olim, fermer, hokim, tadbirkor, huquqshunos, siyosatchi, mehribon ona. Hamma ishning uddasidan chiqadi.

IX-XI asrlarda O'zbekiston zaminida xotin-qizlar akademiyasi bo'lgani, bu yerga 40 ga yaqin mamlakattan kelib o'qib ketilgan haqida ma'lumotlar bor. Prezidentimizning xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlaridan kelib chiqqan holda, yangi O'zbekistonda yana o'sha xotin-qizlar akademiyasini tiklab, zamonaviy tendensiyalar asosida ishga tushirib, g'oyat tashingra loyiq ish bo'lishiga shubha yo'q.

Aytganimizdek, yurtimizda iqtidorli, ishchan, mehribon, fidoyi xotin-qizlar juda ko'p. Faqat ularni tanlab joyiga qo'yisak bas. Shuning uchun ham Prezidentimiz bu masalaga bejiz e'tibor qaratmayapti. Bu bizga faqat yaxshilik olib keladi, dunyo mamlakatlari ichida ilg'or bo'lishimizga xizmat qiladi.

Majburiy mehnatga barham berilgan-chi? Bu ham nihoyatda katta siyosiy iroda bilan amalga oshirildi. Men o'tgan asrning 50-yillaridan buyog'ini yaxshi eslayman. Tog'da yashaydigan odamlarni ham paxta terimiga olib kelishardi. Ayollar, bolalar zah shiyponlarda yotardi. Oqibatda qanchadan-qancha bolalar nogiron tug'ildi. Qanchadan-qancha avlodni boy berdik. Bu mustahlikdan keyin ham — yaqin yillargacha davom etdi-ku!

Qariyb bir asrlik bu tizimga bir urinish-da, bitta siyosiy iroda bilan ortga qaytmas tarzda barham berish oson ish emas edi. Xayriyatki, shunday bo'ldi. Ammo bu yo'lining qanchalik murakkab, o'z navbatida, sharaflari ekanini haligachagina yetmayotgan odamlarimiz bor oramizda. Bu ishlar o'z-o'zidan bo'lgan, deb o'ylaydiganlar oz emas.

Bog'bon bo'lmay bilmas gulning qadri, ari boqmay bilmas bolning qadri, deydi xalqimiz. Shu bois, biz hayotimizda bo'layotgan katta-katta islohotlarning qadri, mazmun-mohiyatini teran anglashimiz, qadriga yetishimiz kerak. Shundaygina jamiyatimizda hamjihatlik muhiti yanada mustahkamlanadi. Shundaygina islohotlarimiz ruhi va shukhi bugungidan-da fayzli bo'ladi.

Biz gapimizni bejiz sud hokimiyati va odil sudlov tizimidan boshlab, so'ng jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos solgan islohotlardan ayrimlariga to'xtalmadik. Gap shundaki, har bir taraqqiyot davrinin o'ziga xos xususiyatlari, asos va omillari, maqsadlari bo'ladi. Agar O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri mezonlari haqida so'ralsa, hech ikkilanmasdan aytish mumkin bo'lgan uchta muhim maqsad bor. **Birinchi** — xalqimizning hayotda munosib yashashga bo'lgan uzoq yillik orzu-umidlarini ro'yogga chiqarish yo'lidagi sa'y-harakatlar. **Ikkinchi** — xalqqa xizmat qiladigan davlatchilik tuzilmalarini yaratish. **Uchinchi** — inson qadriini yuksaltirish siyosatiga asoslangan milliy qonunchilik bazasini mustahkamlash.

Yuqoridagi xalqimiz hayotida bo'lgan o'zgarishlarning ayrimlarinigina aytdik, xolos. Navbatda esa bu tizimning huquqiy asoslarini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar mohiyatiga e'tibor qaratmoqchimiz.

Bu o'rinda yana 2017-yilning 13-iyunida Prezidentimiz bilan bo'lgan muloqotga qaytamiz. O'shanda davlat rahbari odil sudlov tizimidagi kamchiliklarimiz haqida gapirib, sud tizimini jazolovchi organ emas, balki xalqni himoya qiluvchi tuzilmaga aylantirish borasida gapirgan edi. **Adolat — adolat, haqiqat — haqiqat bo'lishi** kerakligini aytgan edi.

So'ngra sud hokimiyati vakillarini ondiga adolat, tilida haqiqat, dilida poklik ustuvor bo'lishiga chorlagan ham yodimizda. Bu gaplar zamirida juda katta hayotiy haqiqat va falsafiy ma'no borligini o'shanda kimdir tushundi, kimdir yo'q. Chunki sudyalarni o'sha vaqtda hali katta o'zgarishlarni qabul qilishi qiyin edi-da.

Shundan keyin tizimda juda katta o'zgarishlar boshlandi. Sudyalarning moddiy ta'minotidan tortib, oilasidagi tinchlik-xotirjamlik, shaxsiy xavfsizligiga ko'rib chiqildi va ijobiy tomonga o'zgardi.

Prezidentimiz yana bir muhim jihatti ham nazardan chetda qoldirdi. Ya'ni nafaqat sudyalarni, balki ular yonida ishlayotgan

Bundan tashqari, 2017-2021-yillarda bevosita Prezidentimiz farmoni bilan jazo muddatini o'tayotgan 5,5 mingga yaqin mahkumga nisbatan afv akti qo'llanildi.

Endi o'zingiz bir o'ylab ko'ring. Birgina sud hukmi bilan oqlangan minglab fuqarolar oilasiga ular bilan birga farovonlik, bag'ri butunlik, kelajakka ishonch ruhi qaytdi. Bu ham mehri siyosatimizning insonparvar namunasi sifatida jamiyatimizning yangi, ko'tarinki qiyofasiga asos soladimi? Ha, albatta!

Mavridi kelganda, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz prinsipidan kelib chiqib, yana bir yangilik haqida aytmoqchiman. Bu yoshlar taqdiri bilan bog'liq. Gap

Bugun oddiy odamlarning muammolariga yechim topish zamoni kelgan. Mana shu ezgu ishlar bosh asosi va huquqiy zamini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz darajasida mustahkamlangani boisi ham shu aslida.

Fikrimizni, kasbimiz nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, ba'zi misollar bilan asoslaylik. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdan juda xalqchil masalalar o'rin olgan. Shulardan biri — **shaxsiy huquq va erkinliklar** masalasi.

To'g'ri, bu ilgari ham bo'lgan, lekin mukammal va xalqchil emas edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "**Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas**" deb belgilab qo'yildi.

Mana shu normaning o'ziyoq fuqarolar shaxsiy huquq va erkinligini ta'minlash borasida katta yutuqqa erishganimizni ko'rsatadi. Buning mohiyatini bilish uchun oldingi tizimga qaytamiz. Ilgari tergovga jalb etilgan gumondor o'z aybini bo'yniga olsa, shuning o'zi ko'pincha fuqaroni aybli deb topish uchun yetarli hisoblanardi.

Hech kim bilmasdiki, u bu aybini qanday sharoitda bo'yniga oldi. Tergovda bor yoki yo'q aybini bo'yniga olish uchun tazyiq o'tkazildi, tahdid qilindi, unchalik e'tiborga olinmasdi.

Endi bunday bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ko'ra, endilikda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hatto e'tibor bering, agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi ham belgilab qo'yildi. Ya'ni aytaylik, bir fuqaro tergovda yo suda o'z aybini tan oldi, lekin bu asos unga nisbatan hukm chiqarishga yo'l bermaydi. **Shunday taqdirida ham uning aybini boshqa inkor qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlash kerak bo'ladi.**

Buning zamirida juda katta hayotiy yutuq borligini, bir inson taqdiri, uning ortidagi farzandlar, ota-ona yoki qarindoshlar tinchligi, xotirjamligi, farovonligi mana shu norma asosida ham ta'minlanganini keng muhofada qilib ko'rgan kishi darhol anglab yetadi.

Yana bir muhim jihat bor. Bu — sud hukmidagi Konstitutsiyani ham to'g'ridan-to'g'ri qo'llash masalasi.

Masalan, fuqarolarning ijtimoiy huquqi. Ilgari homilador ayollar ishga qaytasa, "o'ringizga boshqa kishini oldik", deya ishdan nohaq bo'shatish holatlari ham ko'p uchrardi.

Endi hech bir ish beruvchi bunaqa qilolmaydi. Ayollarni tug'urug ta'tilidan keyin yana o'z ish o'miga hech xavotirsiz qaytib keladi. Chunki Bosh qonunimizda "**Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi**", deyilgan.

Ish beruvchi bu kabi ayollarni ishga qabul qilishdan bo'yin tovlasa yoki ish haqini nohaq kamaytira, sud uni Konstitutsiyaga normalasini buzganlikda ayblab, jazolashi mumkin bo'ladi.

Konstitutsiyaviy o'zgarishlar haqida uzoq gapirish mumkin. Lekin hozir Prezidentimiz bilan 2017-yildagi o'sha tarixiy uchrashuvni eslab, yana bir muhim gap xotiramda jonlandi.

Davlatimiz rahbari o'shanda kim bo'lishidan qat'i nazar, o'zimizning fuqarolarini, xorijlik fuqarolari, sud idoralarga kirgan kishi, adolat va haqiqat bor ekan, deb chiqib ketishi kerak, degan ma'noda gapirgan edi.

Bugun shunday bo'lyaptimi? Bo'lyapti. Keling, shu haqda ham bir og'iz gapirsak.

Prezidentimiz sudlar oldiga tadbirkorlar manfaatini himoya qilish, ularga har jihatdan yordam ko'rsatish masalasini ham qo'yg'an edi.

Yangi O'zbekiston bugun har jihatdan investorlar uchun jozibador mamlakatga aylandi. Investorlarni himoya qiladigan qonunchilik bazasi shakllandi. Buning samarasida mamlakatimizga kirib kelayotgan investorlar oqimi ko'paydi. Ular bizda katta-katta zavodlar, fabrikalar qura boshladi. Bugun bu korxonalarda minglab yurtdoshlarimiz mehnat qilmoqda.

Tahlil qilib ko'rsak, investorlar bizga taraqqiyot asosini olib kiradi. Shuning bilan birga, mamlakatimizda bunyod etgan inshootlarini, zavod-fabrikalarini keyin o'zi bilan olib ketmaydi-ku. Ular bizda qoladi. Demak, avvalo, xalqimiz manfaatdor bo'ladi.

Shuning uchun ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda jamiyatimizning iqtisodiy negizi sifatida qator muhim normalar aks ettirildi. **Davlat qulay investitsiyaviy va ishlabarmonlik muhitini ta'minlashi, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanini, O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanishi** shular jumlasidandir.

Bir so'z bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida barha sohalar rivojlanishi, har kim o'ziga berilgan konstitutsiyaviy majburiyatlarini vijdonan bajarib, huquqlaridan to'la-to'kis foydalanishi, milliy davlatchiligimizni takomillashishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Shu o'rinda yana bir mulohaza. Biz Konstitutsiyamizni to'liq bilishimiz kerak. Buning uchun Konstitutsiyada aks etgan normalarni nafaqat jamoatchilik bilan birga, balki har bir oila davrasida o'qib-o'rganish ayni muddabo'lar edi.

Shundaygina Bosh qonunimiz har tomonlama mukammal va xalqchil Konstitutsiyaga aylinishiga hissa qo'shgan bo'lamiz, uni hayotga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish uchun zamin yaratamiz.

Agar konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarimizni mukammal darajada bilib, unga amal qilsak, adolat va haqiqat hech qachon buzilmaydi.

Bugun hayotimizda tahlillar va taqqoslar ko'p. Har bir kunimiz yaxshi yangilik bilan to'la. Bu ham bejiz emas. Boisi, islohotlar to'xtab qolmayapti, aksincha, jadal davom etyapti.

Yangi O'zbekistonda inson qadriini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan katta islohotlar va ularning huquqiy asoslari haqida gapirganda, bu kabi olijanob maqsad zamirida "**Inson — jamiyat — davlat**" degan buyuk g'oyaning hayotiy ifodasini ko'ramiz.

Mana shuning uchun ham xalqimiz o'z Prezidenti — Shavkat Mirziyoyevga komil ishonch bilan ovoz berdi. Bu kelgusida yangi taraqqiyotga zamin yaratish yo'lidagi buyuk ishonch ruhidan darak beradi. Biz davlatimiz rahbari boshchiligidagi tanlangan yo'limizdan hech qachon ortga qaytmagimizga va maqsadlarimiz, albatta, ro'yogga chiqishiga ishonamiz.

TASHABBUSLI BUDJET



OpenBudget

O'zbekiston Respublikasi
"Ochiq Budget" Portali

G'OLIB BO'LISH UCHUN 1,5 MING OVOZ YETARLI BO'LADI

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Bu yilgi ovoz berish jarayonida 8 million 93 ming 918 fuqaro ishtirok etdi. Uning natijalariga ko'ra, 517 loyiha g'olib topildi. Ularni moliyalashtirishga 412 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltiriladi.



"OBOD QISHLOQ", "OBOD MAHALLA" VA "MENING YO'LIM" LOYIHALARI

Prezidentimizning o'tgan yil 25-oktabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023-yildan boshlab "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budget" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanishi nazarda tutilgan. Buning uchun ovoz berish jarayoni har yili noyabr-dekabr oylarida o'tkaziladi. Taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo'yicha bitta loyiha paketi shaklida ovozga qo'yiladi.

hamda jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha tuman (shahar) maxsus komissiyasining tegishli qarori qabul qilindi.

Tuman (shahar) hokimligi tomonidan 3 kunda loyihalar uchun manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'lar o'tkazib beriladi. Har yil yakunlari bo'yicha jamoatchilik fikri asosida loyihalarni shakllantirish bilan bog'liq jarayonda faol ishtirok etgan fuqarolar rag'batlantirib boriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi "Avtomobil yo'llari sohasida ochiq standartlarni joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Mening yo'lim" loyihasini moliyalashtirishning aniq tizimi joriy etildi. Unga asosan, 2022-yildan boshlab tuman va shaharlar budgeti parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi "Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan loyihalarni ta'mirlashga yo'naltirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu jarayon bir yilda bir marotaba o'tkaziladi.

Mazkur jarayonda axborot portali ichki yo'llarning joylashgan manzilli (geopozitsiyasi), to'liq nomlari, uzunligi, holati (asfaltlangan, ta'mirlanib) va boshqa ma'lumotlari to'liq kiritiladi, — deydi Azim Hasanov. — Portal avtomatik ravishda ta'mirlashga doir o'rta narxi va tuman (shahar) budgeti parametrlaridan kelib chiqib, har bir hududdagi ta'mirlanadigan ichki yo'llarning umumiy hajmini aniqlaydi. Ularni ta'mirlashga doir takliflar kiritish fuqarolar tomonidan axborot portalida taqdim etilgan yo'llardan birini tanlash orqali amalga oshiriladi. Har bir fuqaro ichki yo'llarni ta'mirlashga faqat bitta taklifni ilgari surishi va bitta taklifga ovoz berishi mumkin.

Joriy yil 7-may kuni "Mening yo'lim" loyihasining 2023-yilgi mavsumiga ovoz berish jarayoni yakuniga yetdi. Ushbu mavsum uchun 10 ming 317 ta tashabbusli taklif kelib tushdi. O'tgan yili xuddi shu jarayonda 9 ming 212 loyiha ilgari surilgan edi.

Bu yilgi ovoz berish jarayonida 8 million 93 ming 918 fuqaro ishtirok etdi. Uning natijalariga ko'ra, 517 loyiha g'olib topildi. Ularni moliyalashtirishga 412 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Amaldagi nizomga muvofiq, g'olib deb topilgan loyihalar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ushbu takliflarni ilgari surgan fuqarolar jalb qilingan holda ishlab chiqiladi. Ularni amalga oshirish bo'yicha ichki yo'llarni loyihalashtirish, ta'mirlashda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari buyurtmachi vazifasini bajaradi.

Yo'l qurish va uning obodligini ta'minlash savobli ish. Chunki bu vazifa inson qadri, el roziligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, joylarda ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha mavjud muammolar aynan fuqarolarning talab hamda takliflari asosida hal etilishi ularning sifati va ravon, manzillarning yaqin bo'lishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi departament direktori Sherzod Muhammedovning qayd etishicha, bu yil mahallalarga ajratilayotgan mablag' ko'lami 25 trillion

so'mga yetkazilishi, "Tashabbusli budget" dasturi doirasida o'tgan yildagiga qaraganda budgetdan 3,5 barobar ko'p — jami 8 trillion so'm yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. Shundan 2 trillion so'm "Tashabbusli budget" jarayonlari uchun tuman va shahar budgetlarida rejalashtirilgan, 320 milliard so'm "Mening yo'lim" loyihasi doirasida tuman va shahar budgetlaridan ajratilishi, 4 trillion so'm "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilishi mo'ljallangan.

Odamlarni qiyinab kelayotgan muammolarni hal etish maqsadida 2023-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budgeti qo'shimcha mablag'larining 30 foizi ham fuqarolar fikri asosida yo'naltiriladigan bo'ldi. Bungacha bunday talab faqat tuman-shaharlar budgetiga taalluqli edi. Endi mahalliy budgetlar tomonidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga 1,7 trillion so'm Fuqarolar tashabbusi jamg'armalari o'tkaziladi.

"Ochiq budget" loyihalari ko'lami tobora kengayib, uning har bir jarayoniga ajratilayotgan mablag' miqdori ham ortib boryapti. To'g'ri, bu jarayon ayrim muammo va kamchiliklardan ham xoli emas. Ularni hal etish zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanishni va doimo takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Xususan, o'tgan davr mobaynida fuqarolar tomonidan turli telefon raqamlari bilan portaldan ro'yxatdan o'tib, "foydalanuvchilar" xaritasini shakllantirish va keyinchalik ushbu akkauntlarni ishga solish asosida sun'iy ravishda ovozlar sonini ko'paytirish holati kuzatilgan edi.

Shunday holatlarning oldini olish va jarayonning haqiqiy o'tkazilishini ta'minlash maqsadida ovoz berish imkoniyati faqatgina SMS xizmati orqali va ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar tomonidan ovoz berilishida ham ularning telefon raqamlariga yuborilgan SMS-xabaromama bilan amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Bunda barcha ovozlar real vaqtda va haqiqatan amalda bo'lgan (ishlab turgan) telefon raqamlari orqaligina amalga oshiriladi. Natijada fuqaro har bir jarayonda bitta taklif kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Eng muhimi, aholining "Tashabbusli budget" loyihasiga va uning shaffofligiga ishonchi katta. Bu loyiha qisqa fursatda fuqarolar manfaati va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmi asosida budget mablag'laridan samarali foydalanish vositasiga aylandi. Natijada qishloq va mahallalarda uzoq yillar davomida hal etilmay kelgan ijtimoiy muammolar qisqa muddatda yechimini topyapti, hamjihatlikda ko'tarilgan va ovoz berilgan takliflar samarasidan bahramand bo'linyapti.

Davlatimiz rahbari bu haqda "Bizning tajribamizda bu ham birinchi marta va juda katta ijobiy natija beryapti. Odamlar shu jarayonlarda bevosita o'zlari ishtirok etyapti... Eng muhimi, odamlar bunday loyihalarga daxldor bo'lib, bunyod qilingan infratuzilmadan faxrlanib, ularni asrab-avayab foydalanyapti", degan edi.

Ha, shunday. Aholi o'z hududi, yashab turgan joyi obodligi uchun mas'uliyatni his qilyapti, yaxshi yashash yo'lida faol fuqarolik pozitsiyasini ishga solyapti. Tadqiqotchilar ta'bir bilan aytganda, bu jarayonda odamlar o'z manfaati uchun emas, xalq manfaati uchun bir tan-u bir jon bo'lib raqobatlashyapti. Insonlardagi birdamlik, jipslik erangi kunga bo'lgan ishonchni oshiryapti.

Fikr erkinligi insonlar tafakkurini yuk-saltirib, yurt obodligi, ezgu ishlarga daxldorlik tuyg'usiga qanot beradi. Shu ma'noda, "Tashabbusli budget" ham mahalliy budget mablag'larining aholi tomonidan ovoz berish yo'li orqali yo'naltirilishida, qolaversa, ular hamjihatligini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etyapti. Shu bois, erishilgan yutuqning qadr-qimmatini sarbaland, iftixorli.

Mana, mazkur loyiha uchun shu yilgi ikkinchi mavsumiga ham start berildi. Dolzarb takliflarni ilgari surib, hamjihatlikda harakat qilganlar, albatta, g'oliblar safida bo'ladi. Bir yarim ming ovoz to'plash orqali qanchadan-qancha bog'cha, maktab, shifoxona ta'mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta'mirlanadi, sport maydonchalari ishga tushadi, qishloq va mahallalarga toza ichimlik suv keladi, yuzlab kilometr yo'l obod va charog'on bo'ladi...



Boshlanishi 1-betda

ODAMLARNI UYG'OTGAN VA BIRLASHTIRGAN LOYIHA

Davlatimiz rahbari shu yil 12-iyun kuni Prezidentlikka nomzod sifatida Nukus shahrida o'tkazgan saylovoldi uchrashuvida mahallalar uchun "Ochiq budget" imkoniyatlari yanada kengaytirilishi va unga ajratiladigan mablag' uch karra oshirilishini bildirar ekan, endi "Ochiq budget" loyihalari g'olib bo'lishi uchun 1,5 ming ovoz yetarli bo'lishi va ushbu maqsadlar uchun yil yakuniga qadar yana 1,2 trillion so'm ajratilishini ma'lum qildi.

Bu jarayonlar 2019-yildan buyon Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Ochiq budget" portalidagi "Tashabbusli budget" bo'limi orqali amalga oshirib kelinyapti. Ushbu elektron tizim yordamida fuqarolar mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo'llar qurish, ularning yoritilishini ta'mirlash, bog'cha, maktablar qurish, ta'mirlash va jihozlash kabi masalalar bo'yicha loyihalarni taklif etib, ovoz berish yo'li bilan mahalliy budgetning taqsimlanishida ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratilgan.

Shu o'rinda bir taqqos: mamlakatimiz aholisi 36 milliondan ortiq bo'lsa, ularning 20 milliondan ziyodi ovoz berish huquqiga ega. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, "Tashabbusli budget"ning joriy yil birinchi mavsumida 16 million 129 ming 764 fuqaro ovoz berishda qatnashgan. Bu yurtimiz aholisining qariyb 45 foizidir.

Agar 2021-yilda o'tkazilgan ovoz berish jarayonida 1,1 million fuqaro qatnashgan bo'lsa, 2022-yilning dastlabki mavsumida ular soni 6,7 milliondan ziyodroq bo'lgan edi. Demak, joriy yilning mos davrida ishtirokchilar soni qariyb 9,3 millionga oshgan. Bu aholining "Tashabbusli budget"dan joy olgan loyihalarga daxldorligi, jarayonning xolis va oshkora o'tishi, g'olib takliflar qisqa muddatda amalga oshirishga bo'lgan katta ishonchining yaqqol namoyonidir.

Tahlilchilar fikricha, so'nggi 30 yilda mamlakatimizda aholini bunchalik darajada qamrab olgan ijtimoiy voqeilik kuzatilmagan.

"Ochiq budget"ning 2023-yilgi birinchi mavsumida 55 ming 970 ta taklif ilgari surilgan. Ularning 33 ming 680 tasi hududiy ichki komissiyalar tomonidan saralab olinib, ovoz berish bosqichiga o'tkazildi. Eng ko'p ovoz olgan 1 ming 666 loyiha g'olib topildi.

— Davlatimiz rahbarining shu yil 10-apreldagi "Tashabbusli budget" loyihalari hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida tizimga oid qator vazifa va qoidalar belgilandi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Azim Hasanov. — Jumladan, 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'lmagan 1 ming 309 loyiha uchun ham qo'shimcha ravishda 1,3 trillion so'm ajratiladi. Bu 4 milliondan ortiq aholi ko'targan masala yechimini topdi, degani. Shunday qilib, g'olib loyihalarga budget mablag'lari hisobidan jami 2,9 trillion so'm yo'naltiriladigan bo'ldi.

2023-yil birinchi mavsumda g'olib topilgan 2 ming 975 loyihaning o'z vaqtida va sifati amalga oshirilishi qat'iy nazoratga olingan. Bunda jihozlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish so'nggi muddati etib joriy yilning iyul, qurilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha loyihalarni bajarishning so'nggi muddati etib avgust oyi belgilangan.



Tashabbusli budgetlashtirish jarayoni doirasida budget tashkilotlari rahbar xodimlari tomonidan majburiy ovoz yig'ish bo'yicha xodimlarga topshiriq berishi taqiqlangan. Majburiy ovoz yig'ishga maj-

— sog'liqni saqlash muassasalari — 370 ta yoki 12,3 foiz;

— maktabgacha ta'lim tashkilotlari — 176 ta yoki 5,8 foiz.

Yana bir e'tiborli jihati, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini mustahkam-

Joriy yil 7-may kuni "Mening yo'lim" loyihasining 2023-yilgi mavsumiga ovoz berish jarayoni yakuniga yetdi. Ushbu mavsum uchun 10 ming 317 ta tashabbusli taklif kelib tushdi. O'tgan yili xuddi shu jarayonda 9 ming 212 loyiha ilgari surilgan edi.

— umumta'lim maktablari — 1 ming 335 ta yoki 44,5 foiz;

— ichki yo'llar — 629 ta yoki 20,9 foiz;

lash hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha har biri 1,5 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'lmagan loyihalar tahlili o'tkazilib, 2024-yil uchun budget so'rovida ularni ta'mirlash, jihozlash va xarid qilish xarajatlarini ro'yxatga kiritish ko'zda tutilgan. Bu aslida 34 mingta loyiha kelgusi yil budgetini shakllantirish uchun tayyor taklif, degani. Buning natijasida 164 ta maktab, 30 ta bog'cha va 32 ta tibbiyot muassasasida ta'mirlash, jihozlash va boshqa ishlar uchun 304,6 milliard so'm qo'shimcha mablag' yo'naltiriladi.

Vazirlar Mahkamasining shu yil may oyi boshida e'lon qilingan qarori bilan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budgetlashtirish jarayoni orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom ham qabul qilindi.

Nizomga binoan, jamoatchilik fikri asosida loyihalar to'plami mahallalar (qishloqlar) bo'yicha shakllantiriladi va g'olib mahallalar (qishloqlar) aniqlanadi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi departament boshlig'i Sherzod Muhammedov. — Jarayonlar 3 ta bosqichda amalga oshiriladi: 1-bosqichda portaldagi loyihalar to'plami shakllantiriladi, 2-bosqichda shakllantirilgan loyihalar to'plami saralab olinadi, 3-bosqichda saralashdan o'tgan loyihalar to'plamlariga ovoz beriladi.

G'olib mahallalar ovoz berish jarayoni boshlanishidan avval keng jamoatchilikka e'lon qilingan holda loyihalar to'plamiga berilgan ovozlar soni inobatga olinadi. Aholisi soni kam mahallalarga loyihalar to'plamiga berilgan ovozlar aholi sonidan kelib chiqqan holda tozalash koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Ovoz berish jarayoni yakunlariga binoan, har bir tuman (shahar) uchun jamg'armada shakllantirilgan mablag'lar doirasida eng yuqori ko'rsatkichni egalagan loyihalar to'plami g'olib topiladi. Ularning g'olib deb topilishi uchun kamida 100 ta ovoz to'plash zarur. Ovoz berish yakunlangandan so'ng 3 kunda g'olib topilgan loyihalar to'plamini amalga oshirish bo'yicha manzilli ro'yxat shakllantiriladi



XORIJDAGI VATANDOSH



Olislarda ham ONA YURT BILAN BIRGAMIZ

Shahzoda TOSHMATOVA
AQSH, Nyu-York shtati

Boshlanishi 1-betda

Bu tuyg'u — sog'inch, bu tuyg'u — kindik qoni to'kilgan ona zaminga muhabbat hissi. Ayniqsa, o'zbek farzandi borki, Yer yuzining qayerida bo'lmasin, doim o'zbekligidan g'ururlanadi, minglab kilometr olislarda ham qalban shu yurtga talpinaveradi. Bunga o'z hayotim misolida guvoh bo'lib kelyapman.



man. Chunki uning chekka hududlarida ham rivojlanish shid-dati yuqori va zamonaviy shaharlarnikidan qolishmaydigan taraqqiyotni his etish mumkin. Qolaversa, tarixiy obidalariga boy. Dunyoda zamonaviy va qadimiy binolarni o'z ichiga olgan bunday go'zal diyorlar kam.

Ana shu rivojlanishlar bilan birga, mamlakatimiz turizm salohiyati oshib borayotgani ham quvonarli. Ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning birinchi choragidayoq 2,6 million xorijlik O'zbekistonga turistik maqsadda kelgan. Haqiqatan, chet elliklar orasida yurtimizga qiziquvchilar soni ortib boryapti. Amerikaliklar ham milliy urf-odatlarimiz, liboslarimiz, madaniyatimizga qiziqadi. AQSHning deyarli barcha shtatida o'zbek restoranlari uchratishingiz mumkin va qizig'i, bu yerdagi xo'randalarning asosiy qismi amerikaliklar. Yanada ajablanarlisi, ular ham o'zbek palovini xuddi biz kabi sevib iste'mol qiladi.

Bu yerdagi ko'p tanishlarim O'zbekiston haqida so'raydi va ushbu go'zal diyorga sayohat qilish istaklari borligini aytadi. Ularning ko'pini sayyoh sifatida ham olib borganman va doim iliq hamma samimiy minnatdorlik fikrlarini eshitaman. Mamlakatimizga borib qaytgan boshqa sayyohlar bilan ham suhbatlashganimda, o'zbeklarning bag'rikengligi, mehmondo'stligidan ta'sirlanib gapiradi. Milliy odatlarimiz, liboslarimiz, paxta gulli choynak-piyolalar, metrodagi o'zaro hurmat ularda alohida qiziqish uyg'otadi.

Esimda bor, bir kuni Amerikada istiqomat qiladigan fransiyalik ayol mendan "Qayerliksan?" deb so'radi. "O'zbekistondanman", deganimda, birdan ko'zlarim porlab ketdi. "O'sha o'lkaga yana bir marta borsam, armonim yo'q", dedi. Yana, afsonaviy yurtga o'xshatishini, faqat e'taklardagina bunday sodda va samimiy insonlar bo'lishini aytib, kulib qo'yd.

Bunday gaplarni eshitganda, chindan, O'zbekiston jannatmanand yurt ekaniga amin bo'laman. Biz qanchalik boshqa diyorlarga "uchishga" intilmaylik, doim ona Vatanga talpinaverishimiz boisi ham shundan bo'lsa kerak. Amerikaning barcha shtatlarida ko'plab vatandoshlarimiz yashaydi. Va ular doim bir-birini qo'llab-quvvatlashiga guvoh bo'laman. Xorijda yashayotgan har bir o'zbekning ko'zida Vatani sog'inchi bo'ladi. Shu bois, Amerikada bo'lishimizga qaramay, milliy bayramlarimizni ko'pchilik bo'lib, shu yerdagi vatandoshlarimiz bilan birga nishonlaymiz. Hatto bir-birini tanimasa ham, o'zbek o'zbekka har qanday holatda yordam beradi, qo'llaydi.

Amerikadagi O'zbekiston elchixonasi faoliyatini ham yuqori baholayman. Yurtdoshlarimizga har qanday masalada tezkor ko'mak berishadi. Ular tomonidan sayyohlikni rivojlantirish borasida ko'p ishlari, samarali loyihalar amalga oshirilyapti. Ana shunday loyihalar orqali yurtimizni dunyoga tanitishda biz ham o'z hissamizni qo'shayotganimizdan mamnunmiz va bunga doim tayyormiz.

man. Chunki uning chekka hududlarida ham rivojlanish shid-dati yuqori va zamonaviy shaharlarnikidan qolishmaydigan taraqqiyotni his etish mumkin. Qolaversa, tarixiy obidalariga boy. Dunyoda zamonaviy va qadimiy binolarni o'z ichiga olgan bunday go'zal diyorlar kam.

Ana shu rivojlanishlar bilan birga, mamlakatimiz turizm salohiyati oshib borayotgani ham quvonarli. Ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning birinchi choragidayoq 2,6 million xorijlik O'zbekistonga turistik maqsadda kelgan. Haqiqatan, chet elliklar orasida yurtimizga qiziquvchilar soni ortib boryapti. Amerikaliklar ham milliy urf-odatlarimiz, liboslarimiz, madaniyatimizga qiziqadi. AQSHning deyarli barcha shtatida o'zbek restoranlari uchratishingiz mumkin va qizig'i, bu yerdagi xo'randalarning asosiy qismi amerikaliklar. Yanada ajablanarlisi, ular ham o'zbek palovini xuddi biz kabi sevib iste'mol qiladi.

Bu yerdagi ko'p tanishlarim O'zbekiston haqida so'raydi va ushbu go'zal diyorga sayohat qilish istaklari borligini aytadi. Ularning ko'pini sayyoh sifatida ham olib borganman va doim iliq hamma samimiy minnatdorlik fikrlarini eshitaman. Mamlakatimizga borib qaytgan boshqa sayyohlar bilan ham suhbatlashganimda, o'zbeklarning bag'rikengligi, mehmondo'stligidan ta'sirlanib gapiradi. Milliy odatlarimiz, liboslarimiz, paxta gulli choynak-piyolalar, metrodagi o'zaro hurmat ularda alohida qiziqish uyg'otadi.

Esimda bor, bir kuni Amerikada istiqomat qiladigan fransiyalik ayol mendan "Qayerliksan?" deb so'radi. "O'zbekistondanman", deganimda, birdan ko'zlarim porlab ketdi. "O'sha o'lkaga yana bir marta borsam, armonim yo'q", dedi. Yana, afsonaviy yurtga o'xshatishini, faqat e'taklardagina bunday sodda va samimiy insonlar bo'lishini aytib, kulib qo'yd.

Bunday gaplarni eshitganda, chindan, O'zbekiston jannatmanand yurt ekaniga amin bo'laman. Biz qanchalik boshqa diyorlarga "uchishga" intilmaylik, doim ona Vatanga talpinaverishimiz boisi ham shundan bo'lsa kerak. Amerikaning barcha shtatlarida ko'plab vatandoshlarimiz yashaydi. Va ular doim bir-birini qo'llab-quvvatlashiga guvoh bo'laman. Xorijda yashayotgan har bir o'zbekning ko'zida Vatani sog'inchi bo'ladi. Shu bois, Amerikada bo'lishimizga qaramay, milliy bayramlarimizni ko'pchilik bo'lib, shu yerdagi vatandoshlarimiz bilan birga nishonlaymiz. Hatto bir-birini tanimasa ham, o'zbek o'zbekka har qanday holatda yordam beradi, qo'llaydi.

Amerikadagi O'zbekiston elchixonasi faoliyatini ham yuqori baholayman. Yurtdoshlarimizga har qanday masalada tezkor ko'mak berishadi. Ular tomonidan sayyohlikni rivojlantirish borasida ko'p ishlari, samarali loyihalar amalga oshirilyapti. Ana shunday loyihalar orqali yurtimizni dunyoga tanitishda biz ham o'z hissamizni qo'shayotganimizdan mamnunmiz va bunga doim tayyormiz.

man. Chunki uning chekka hududlarida ham rivojlanish shid-dati yuqori va zamonaviy shaharlarnikidan qolishmaydigan taraqqiyotni his etish mumkin. Qolaversa, tarixiy obidalariga boy. Dunyoda zamonaviy va qadimiy binolarni o'z ichiga olgan bunday go'zal diyorlar kam.

Ana shu rivojlanishlar bilan birga, mamlakatimiz turizm salohiyati oshib borayotgani ham quvonarli. Ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning birinchi choragidayoq 2,6 million xorijlik O'zbekistonga turistik maqsadda kelgan. Haqiqatan, chet elliklar orasida yurtimizga qiziquvchilar soni ortib boryapti. Amerikaliklar ham milliy urf-odatlarimiz, liboslarimiz, madaniyatimizga qiziqadi. AQSHning deyarli barcha shtatida o'zbek restoranlari uchratishingiz mumkin va qizig'i, bu yerdagi xo'randalarning asosiy qismi amerikaliklar. Yanada ajablanarlisi, ular ham o'zbek palovini xuddi biz kabi sevib iste'mol qiladi.

Bu yerdagi ko'p tanishlarim O'zbekiston haqida so'raydi va ushbu go'zal diyorga sayohat qilish istaklari borligini aytadi. Ularning ko'pini sayyoh sifatida ham olib borganman va doim iliq hamma samimiy minnatdorlik fikrlarini eshitaman. Mamlakatimizga borib qaytgan boshqa sayyohlar bilan ham suhbatlashganimda, o'zbeklarning bag'rikengligi, mehmondo'stligidan ta'sirlanib gapiradi. Milliy odatlarimiz, liboslarimiz, paxta gulli choynak-piyolalar, metrodagi o'zaro hurmat ularda alohida qiziqish uyg'otadi.

Esimda bor, bir kuni Amerikada istiqomat qiladigan fransiyalik ayol mendan "Qayerliksan?" deb so'radi. "O'zbekistondanman", deganimda, birdan ko'zlarim porlab ketdi. "O'sha o'lkaga yana bir marta borsam, armonim yo'q", dedi. Yana, afsonaviy yurtga o'xshatishini, faqat e'taklardagina bunday sodda va samimiy insonlar bo'lishini aytib, kulib qo'yd.

Bunday gaplarni eshitganda, chindan, O'zbekiston jannatmanand yurt ekaniga amin bo'laman. Biz qanchalik boshqa diyorlarga "uchishga" intilmaylik, doim ona Vatanga talpinaverishimiz boisi ham shundan bo'lsa kerak. Amerikaning barcha shtatlarida ko'plab vatandoshlarimiz yashaydi. Va ular doim bir-birini qo'llab-quvvatlashiga guvoh bo'laman. Xorijda yashayotgan har bir o'zbekning ko'zida Vatani sog'inchi bo'ladi. Shu bois, Amerikada bo'lishimizga qaramay, milliy bayramlarimizni ko'pchilik bo'lib, shu yerdagi vatandoshlarimiz bilan birga nishonlaymiz. Hatto bir-birini tanimasa ham, o'zbek o'zbekka har qanday holatda yordam beradi, qo'llaydi.

Amerikadagi O'zbekiston elchixonasi faoliyatini ham yuqori baholayman. Yurtdoshlarimizga har qanday masalada tezkor ko'mak berishadi. Ular tomonidan sayyohlikni rivojlantirish borasida ko'p ishlari, samarali loyihalar amalga oshirilyapti. Ana shunday loyihalar orqali yurtimizni dunyoga tanitishda biz ham o'z hissamizni qo'shayotganimizdan mamnunmiz va bunga doim tayyormiz.

man. Chunki uning chekka hududlarida ham rivojlanish shid-dati yuqori va zamonaviy shaharlarnikidan qolishmaydigan taraqqiyotni his etish mumkin. Qolaversa, tarixiy obidalariga boy. Dunyoda zamonaviy va qadimiy binolarni o'z ichiga olgan bunday go'zal diyorlar kam.

NUQTAYI NAZAR

Mamlakatimizda bo'lib o'tgan muddatidan ilgari Prezident saylovida xalqimiz yana bir bor o'z munosib tanlovini amalga oshirdi. Mazkur siyosiy jarayonda, ayniqsa, yoshlarning juda faol bo'lgani kuzatildi.

JO'SHQIN AVLOD RUHI

Feruz HAKIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi



Keyingi yillarda yurtimizda yoshlarga alohida g'amxo'riik ko'rsatilib, har tomonlama e'tibor kuchaydi. Bu boradagi davlat siyosatining huquqiy asoslari qonunchilik bazasi asosida mustahkamlandi. 30-iyun — Yoshlar kuni deb e'lon qilindi va har yili munosib tarzda nishonlanadigan bo'ldi. Turli sohalarida yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. Buyuk davlat arbobi Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtini ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o'rnatib bo'lib xizmat qilishini inobatga olib, harbiy akademik litseylarga "Temurbeklar maktabi" nomi berildi. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlariga kirish va oliy ta'lim olish borasida qator yangiliklar, yengilliklar joriy etildi.

Konstitutsiyamizning yangi tahririda ham davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi belgilandi. Yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta'lim olishi, sog'lig'ini saqlashi, uy-joyga ega bo'lishi, ishga joylashishi, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratilishi Bosh qonunda belgilab qo'yilishi har birimizga g'urur bag'ishladi.

Prezidentimiz o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimimizda nutqida ham yoshlarga alohida e'tibor qaratdi va "Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi. Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz. Yoshlik — g'animat, vaqt — g'animat, fursat borida o'tni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o'z so'zingizni aytiting!", deya bizni yangi marralar sari ilhomlantirdi.

Mana shu kabi buyuk insonch, yarattigan keng imkoniyatlar, e'tibor va g'amxo'riik yangi O'zbekiston yoshlarini jamiyatda yanada faol bo'lishga chorlamog'ada. Pirovardida, bugun mamlakatimizda fidoyi, vatanparvar, islohotlarga daxldorlik hissi jo'shqin yosh avlod qatlami shakllanib, ular har jahbada davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildirmog'ada.

YUKSALISH PALLASI

Mushtariy MADRAHIMOVA,
Buyuk Britaniyadagi Oksford universiteti magistranti, "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiati

Eng qadimiy va nufuzli ta'lim dargohlaridan biri, dunyo OTM reytinglarida 7 yildan buyon birinchi o'ringa qo'ldan bermay kelayotgan Oksford universitetida tahsil o'lyapman. Bu nufuzli dargohda o'qish bolalikdagi orzum edi. Yaqin yillargacha kimdir bu niyatning amalga oshadi, desa ishonmasdim. Chunki bu yerda ne-ne insonlar o'qiganini yaxshi bilardim. O'tgan yili "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiyasi tanlovida qatnashib, ikkinchi urinishda niyatimga yetdim. O'shandagi quvonchimni so'z bilan ta'rifiy olmayman.

Mutaxassisligim huquqshunos. Bu yerga kelishdan avval yurtimizdagi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligida ishlaganman. Hozirgi o'qishim ham ishlagan soham bilan bog'liq — davlat siyosati va boshqaruvi yo'nalishida. Ushbu yo'nalishni tanlashimdan asosiy maqsad mamlakatimizdagi qizg'in islohotlarga munosib hissa qo'shishdir. Yaqinda davlatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida "Mana, safimizga yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliygohlarda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelmoqda. Men ularning timsolida, avvalo, e'tangni kuzitayotgan yangi rahbarlarini, hudud, tarmoq va sohalarining mohir boshqaruvchilarini ko'raman", degan gapini eshitib, niyatim yanada qat'iylashdi. Bu qanotli so'zlar chet elda ta'lim olayotgan men kabi yuzlab vatandoshlarimizni ruhlantirgani shubhasiz. Yuragimizda bor bilim va tajribamizni Vatanimiz ravnaqi uchun sarflash ishtiyoqi alanga oldi.

Ayni paytda ma'muriy islohotlar, korruptsiyaga qarshi kurashish, davlat boshqaruvinii takomillashtirish bo'yicha o'zim bilimgan yangi-yangi ma'lumotlar o'rganyapman. Xususan, davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish bo'yicha bilimimni oshiryapman.

OKSFORDGA YETAKLAGAN ORZU

yoxud chet elliklarda havas uyg'otgan g'amxo'rlik



taniqli insonlar bo'ladi. Masalan, yaqinda Kolumbiya sobiq prezidenti Ivan Dyuk ma'ruza o'qidi. Bizda uning prezidentlik davridagi islohotlari, faoliyatidagi yutuq va kamchiliklari haqida e'shitish, savol-javob qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

OTMda har bir talabaga alohida tyutor birlashtiriladi. U talaba o'qiyotgan yo'nalish bo'yicha mutaxassislardan tanlanadi. O'qish davomida talabaga to'liq yordam berib boradi.

Korruptsiyaga qarshi yangi loyiha

Bu yerda boshqa davlatdan kelgan ko'plab talabalar o'qiydi. Aksariyati men kabi o'z yurtidagi davlat tashkilotlarida ishlagan. Seminarlarda vatanidagi o'ziga xos ish tajribasi haqida gapirib beradi. Bundan tashqari, davlat boshqaruvinii raqamlashtirish, korruptsiya omilini minimalashtirish, davlat xizmatini samarali tashkil etish, aholi bilan aloqani yo'lga qo'yish kabi masalalarda o'rgansa arzigulik boy tajriba mavjud. Jarayonda xalqaro hujjatlar, standartlar, boshqa davlatlar tajribasini o'rganyapman. O'zbekistonga qaytgach, shu yo'nalishlar bo'yicha takliflar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni rejalashtirganman.

Masalan, hozir o'quv dasturi doirasida Transparency International UK global xalqaro nodavlat tashkilot bilan Sog'liqni saqlash vazirligi ko'magida yangi tadqiqot loyihasi boshladim. Ayni paytda Transparency International UK mutaxassislari bilan hamkorlikda tadqiqot loyihasi yaratilyapman. Shu oy oxirida tadqiqot ishim uchun ma'lumot yig'ish maqsadida yurtimizga qaytaman. Bu jarayonda sog'liqni saqlash tizimida korruptsiyani minimalashtirish bo'yicha tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.

"Xonadagi fil" nima?

Universitetda har bir ma'ruzadan keyin professor "Ushbu leksiya o'zingiz bilan olib ketadigan jihatlar nima?" deya xulosa



qilishga ikki daqiqa beradi. "Elephant in the room", ya'ni "Xonadagi fil" — e'tiborga olinmaydigan haqiqat haqida inglizcha metafora. Hech kim muhokama qilishni istamaydigan aniq muammo yoki xavfli muhokama qilamiz. Uni e'tiborsiz qoldirmaslik, dalillarga tayangan holda imkon qadar shu muammoga tegishli tuzilmalar diqqatini jalb etish zarurligi xususida fikr almashamiz.

Bu yerda Jaloliddin Rumiyning "Qorong'i xonadagi fil" falsafasining chuqur metaforik ma'nosini angladim. Alloma masalida bir necha odam qorong'i xonada o'zi paypaslab ko'rgan filni tasvirlaydi. Ularning har biri filning faqat bir qismini ushlab ko'rib his qiladi va his-tuyg'ulariga asoslanib, fil nima ekanini haqida xulosa chiqaradi.

Har birimiz o'zimizning cheklangan bilim va tajribamizga egamiz. Dunyo haqidagi tushunchamiz subyektiv idrokimiz bilan cheklanishi mumkin. Biz haqiqatning faqat bir qismini ko'rishimiz va shu asosda haqiqat haqidagi g'oyamizni shakllantirishimiz mumkin. Rumiyni bizni ushbu cheklovdan xabardor bo'lish va boshqalarning turli nuqtayi nazarini hamda tajribasini uchun ochiq bo'lishga undaydi. Oksforddagi ta'lim muhiti ham bizni shunga o'rgatayapti.

Har bir insonning o'ziga xos tajribasi va dunyoni idrok etishini anglab, kamtar bo'lishga harakat qilishimiz zarur, yanada uyg'un va tushunadigan jamiyat yaratish uchun hamkorlik qilish va boshqa nuqtayi nazarlarni hurmat qilishni o'rgandim. Seminarlardagi mashg'ulotlar masalaning tub mohiyatiga yetish, to'g'ri yechim berish ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, yaqinda Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan Gana davlatiga qarz berish jarayonini besavita kuzatdik. Gana moliya vaziri, Xalqaro valyuta jamg'armasi vakillariga auditoriyamizda savollar berdik. Bu barchamiz uchun juda katta tajriba bo'ldi.

Ochiq muloqot va yangi bilim olish imkonini

Oksforddagi milliy xilma-xillik har kuni turli millat vakillari bilan muloqot qilish va yangi bilimlar olish imkonini beradi. Bitta paradoks: ba'zida kursdoshlardan professorlardan, ma'ruzalardan ko'ra, ko'proq bilim o'rganishimiz mumkin. Buning sababi shuki, men o'qiydigan fakultetda 55 davlatdan kelgan 144 kursdoshim ilmiy bahs paytida muayyan mavzu bo'yicha 55 xil fikrni

shakllantiradi va barcha fikrlar ilmiy yoki tajribada asoslangan bo'ladi.

Boshqa mamlakatlar madaniyatini ham o'rgandim. Sababi, bu yerda juda ko'plab milliy bayramlar tashkil qilinadi. Albatta, ishtirok etib, ularning farqli jihatini qiziqib o'rganish imkon bo'ladi. Nega aynan urf-odatlar o'rganamiz, degan savol tug'ildi. Turli millat vakillarining qadriyati, urf-odatlarini yaxshi bilgan siyosatchi ham tashqi, ham ichki siyosatda global siyosiy g'oyalarni ishlab chiqaradi, degan fundamental qarash bor. Shuning uchun talabalar bir-birining urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rganishga harakat qiladi. Masalan, Afrika, Amerika, Osiyo davlatlaridan kelgan talabalarning urf-odatlariga bag'ishlangan bayramlar o'tkazildi. O'zim ham Navroz bayramini tashkilashtirdim. Madaniyatimiz haqida tushuncha berishga harakat qildim. Qadriyatlarimiz bilan universitetdagi yaqindan tanishtirdim.

Mendan rejalarim haqida so'rashsa, birinchi navbatda, yurtimga qaytish, deyman. Chunki Oksfordga kelgan ko'plab talabalar shu yerda qolishga intiladi, men esa yurtimni sog'inaman. Bu o'qish davlat tomonidan moliyalashtirilgani uchun emas, balki o'ta-onam, yaqinlarim yonida bo'lishni, elimizga xizmat qilishni xohlayman. "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlarini, umuman, chet elda bilim olib, tajriba orttirayotgan o'zbekistonliklarni "O'zbekiston havo yo'llari" samolyotlaridagi humo qushiga o'xshatishgan paytlari bo'lgan. Qushning nazari orqada. Biz ham rivojlangan davlatlarda ta'lim olishga intilsak-da, nigohimiz, qalbimiz orqada — O'zbekistonda. Shu sabab yurtimizga qaytib, davlat sektorida faoliyatimni davom ettirish — eng katta maqsadim.

Kursdoshlarimda biz, o'zbekistonlik talabalar uchun yaratilgan sharoit, davlatning moliyaviy va ma'naviy ko'magi havas uyg'otdi. Nahotki davlat hamma xarajatlarni qoplasa, deb hayron qolishadi. Shu sabab kelgusida elimiz bildirgan ishonchni oqlash va davlat sektorida ishlash, xususan, korruptsiyaga qarshi kurashish, halollikni ta'minlashga intilish asosiy maqsadlarimdan. Buning uchun tadqiqotlar o'tkazishini maqsad qilayapman. Chuqur izlanishlar olib borish, fikrlarni o'rganish orqali ma'lumotlar yig'ib, dalillarga asoslangan takliflarni ishlab chiqishni istayman. Shu amaliyot orqali davlat sektorida halollik, ochiqlik va samarali boshqaruvi ta'minlashdagi islohotlarga hissamni qo'shaman.



MULOHAZA

ISROFGARCHILIK – TO'KINLIKKA XIYONAT



Har narsaning uvoli bor...

Har dam olish kuni tongda kelib, sut-qatiq sotib ketadigan ayoldan darak bo'lavermagach, uni izlab ko'chaga chiqdim. Yon-atrofdagi ko'rimmagani uchun sal narivoqdagi ko'p qavatli uy oldiga bordim.

Shu payt o'paramdagi uy yo'ltagidan 35 yoshlar atrofidagi ko'hlikkani ayol chiqib keldi va qo'ldagi ichi to'la paketlarni shundoqina yo'l chetiga o'rnatilgan chiqindixonaga qutilari tomon ulotirdi. U otgan paketlardagi narsalar har tomonga yoyilib ketdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, qog'oz uyumlari, latta-putta va turli chiqindilar bilan birga non bo'laklari, turli xil pishiriq va mevalar ham yerga bitta bo'lib sochildi.

— Hoy singlim, nega maxsus qutigamas, yerga tashlab ketyapsiz, axir non bo'laklari uchun maxsus idish qo'yilgan-ku, — dedim ovozimni sal bandlatib. U esa afinni burishtirdi-da:

— Ey, nima ishingiz bor, bir kamim endi sizga hisob berishim qoluvdi. Kerak bo'lsa, o'zlari yig'ib oladi. Non bo'lagi emish, shunchalik aqlli bo'lsangiz terib oling, — deya jahl bilan ortiga burilib ketdi. Ko'z o'ngimda esa bejirimning kiyingan, chiroyligina ayol va uning juda xunuk qilmishi qotib qoldi.

Nahotki, nonni axlatga tashlaydigan darajaga yetib keldik? Nafaqat non, balki tirlik ramzi bo'lmish suv, uyimiz va ko'chalarni charog'on qilib kelayotgan elektr energiyasini ham besamar sarflayapmiz. Eng achinarlisi, aziz ne'mat sanalishim nonning bugun axlat uyumlari orasida paydo bo'lishiga ham oddiy holday e'tiborsiz qurashga o'rganib qoldik. Nonning ushug'ini tashlash ham gunohligini bila turib, nega odamlar ulovdan qo'rqmay qo'yd, degan savolga javob

topish ilinjida Toshkent shahridagi bir nechta chiqindixonalarga bordik va yana ayanchli holatlarning guvohi bo'ldik. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida zamondoshlarimizning isrofgarchilik va uning oldini olish borasidagi fikrlari bilan qiziqdik. Ularning o'tmishlari, kechmishlari, tavsiyalari va so'zlarini hech bir o'zgarishsiz qog'ozga ko'chirdik hamda sizlarga ham ilindik. Zora, bular kimlarningdir vijdonini uyg'otsa...

Endi isrofgarchilikka yo'l qo'yan shaxslarga jarimalar qo'llaniladi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, birgina Toshkent shahrida bir kunda 2 tonnadan ziyod non, mamlakatimiz bo'ylab esa yiliga 3 million tonna oziq-ovqat mahsulotlari chiqindiga tashlanar ekan.

Endi ovqatlanishda isrofgarchilikka yo'l qo'yan shaxslarga moliyaviy jarimalar qo'llaniladi. Qanday qilib deysizmi? Bu borada joriy yilning 31-may kuni Prezidentimizning "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 1-iyulga qadar umumiy ovqatlanish sohasida oziq-ovqat chiqindilari hosil bo'lishini kamaytirish va ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish maqsadida "Oqilona iste'mol" dasturi ishlab chiqiladi. Dasturga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan mas'uliyatni oshirish, aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish odatlarini shakllantirish va ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish hamda me'yoridan ortiq iste'molni targ'ib qilishni cheklash, isrofgarchilikka yo'l qo'yan shaxslarga moliyaviy choralar qo'llash va nazorat mexanizmlarini o'rnatish borasida bir qancha bandlar mavjud.

Ushog'iga ham zor edik

Alfiyanur IBRAGIMOVA, 94 yosh, Toshkent shahrining Uchtepa tumanida yashaydi:

— Bolalik davrim ocharchilik va qimmatchilik yillariga to'g'ri kelgan. Bir burda non topib farzandlarim qorini to'ydiraman, deya erta-kech yelib yugurgan ota-onam va yaqinlarim ochlikdan vafot etgan... Esmida, chamasi 10 yoshlar edim. Uyimiz oldidagi katta dalada bug'doy ekilardi. Onam bechora bug'doy o'rimidan so'ng biz, farzandlariga oziqina bo'lsa ham quvvat bo'lsin, deb tuproq orasida qolib ketgan bug'doy boshog'larini bittalab terib yurardi. Keyin ularni yuvib, kelida maydalab, suv to'ldirilgan qozonga tuz tashlab qaynattirdi. "Bu quvvat bo'ladi, Xudo xohlasa, hali yorug' kunlarga chiqamiz, hammasi yaxshi bo'ladi", deya masalliqsiz qaynatilgan sho'rvani ichishga undardi. Garchi hech qanday ta'mni sezmasak-da, sillamizni quritgan ochlik tanamizni tark etganday bo'lardi. O'sha davrda bir burda non tugal, ushug'iga ham zor edik, o'lib qolmaslik uchun kepak, kunjarga yegan kunlarimiz ertak emas.

Shuning uchun o'tmishni eslagim kelmaydi. Allohga beadad shukr, bolam, to'qchilik, to'kinlik va tinchlik zamonida yashayapmiz. Albatta, noshukurlik qilmasdan, nolimasdan bularning qadriga yetish kerak. Nonning uvoli yomon, isrofgarchilikni, yerda to'kilgan ushug'olarni ko'rsam, yig'lagim keladi. Chunki yaqinlarim ochlikdan shishib o'lganini o'z ko'zim bilan ko'rganman...

94 yoshli onaxonning so'zlarini tinglar ekanmiz, javdirab turgan ko'zlarida o'tmishning ayanchli ozorlari va aksini o'z vujudimizda his qilganday bo'ldik. Yaxshiyam, onaxon bugungi to'y va tantanalarda, hatto ta'ziya marosimlarida yeyishga yaroqli bo'lgan qanchadan-qancha ne'matlarining uvoli bo'layotgani, chiqindixonalarga savatlab to'kilayotganini ko'rmayapti.

Nega bugun bolalar taqiligidan tortib, turli iflos buyumlarga ham non bo'laklarini aralashtirib, axlat qutilariga tashlayapmiz? Axir Hadisi sharifda ham nonni e'zozlash kerakligi, uni uvul qilish gunoh ekanligi alohida ta'kidlangan-ku?



Aziz zamondoshim, dasturxon ustida issiqqina, yumshoqqina nonni ushatayotganimizda dunyoning qaysidir burchagida ochlikdan sillasi quriyotganlar borligini ham bir esga olaylik. Dono xalqimizning "Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan", degan hikmatli so'zlarini yodimizdan chiqarmaylik!

Nonning uvog'ini bossang, ko'r bo'lasan...

Nigora JO'RABOYEVA, 64 yosh, zaxiradagi podpolkovnik:

— Negadir ota-bobolarimiz o'g'itini, yaqin tarixda ko'lib o'tgan ochlik dahshatlarini, ota-onalarimizdan eshitgan bir tishlam non qadrini juda tez unutayapmiz. 33 yildan buyon Diyorobod mahallasiga qarashli ko'p qavatli uyda yashayman. Mahalla faoli va uybohisim. Har kun ertalabdan mahalladagi uylar atrofini aylanib, yuqori qavatlardan tashlangan non bo'laklari va yegulik qoldiqlarini terib yuraman. Ba'zilar "Nigora opa, sizga zarilmi, qachon qarasaq, kimdadir dakk bergan, kimnidir tartibga chaqirgan, yoshlarga nasihat qilgan holda ko'ramiz. Bu ham yetmaganidek, yerdan nimalamidir terib yurasiz, farroshlarga yordam berasiz. Undan ko'ra, oyog'ingizni uzatib, maza qilib yashamaysizmi", deydi. Tuproqqa qorilib yotgan non bo'laklari, isrof qilib to'kilgan ovqat qoldiqlarini ko'rib, vijdoni bor odam qanday xotirjam va befarq yashay oladi, deymen ko'pincha. Bolaligimizda yoshi kattalar ovqat yeb bo'lmagunicha das-

turxonidan turishga bizlarga ruxsat berilmagan.

Fotiha o'qilgach, dasturxon qadam bosilmaydigan joyga qushlar, qurt-qumursqalar uvog'larini terib yesin, deb qoqildirdi. Hozir esa ba'zi bir oilalar taomdan keyin fotiha qilishni bilmaydi yoki o'zlariga ep ko'rmaydi. Otam rahmatli nonning ushug'ini bosmanglar, ko'r bo'lasizlar, derdi. Bobo-momolar o'g'iti o'tmishda qolganidek. Nahotki, urush yillarida va undan so'ng yur-timiz boshidan o'tgan ochlik dahshatlarini, buvilarimizdan eshitgan bir tishlam non qadrini shunchalik tez unutayotgan bo'lsak.

elektr energiyasiga bepisandmiz. Yashil tabiatni payhon qilavermiz, beozor jonivorlarni ayamay qiramiz.

Hayotimiz farovon, dasturxonimiz to'kin bo'lib borgan sayin ma'naviy qashshoqlashib ketayotgandaymiz, nazarimda. Nega farzandlarimiz, nevaralarimizga yaxshilik qilish savobligini, halol mehnat rohatligini ayt-mayapmiz. O'g'irlik, ta'magiriklik, dangasalik, isrofgarchilik gunoh ekanini uqtirmayapmiz. Ishimizni yoki vaqtimizni yo'qligini pesh qilamiz. Dasturxon boshida esa telefonimizni qo'ldan qo'yamaymiz. Gap-gashtaklardan bo'shamay qoldik.

Aziz zamondoshim, dasturxon ustida issiqqina, yumshoqqina nonni ushatayotganimizda dunyoning qaysidir burchagida ochlikdan sillasi quriyotganlar borligini ham bir esga olaylik. Dono xalqimizning "Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan", degan hikmatli so'zlarini yodimizdan chiqarmaylik!

Gulichehra DURDIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



YANGI O'ZBEKISTON



ORAMIZDAGI ODAMLAR

"ONAM BIZGA ORZU QILISHNI O'RGATGAN"

Yaqinda matbuot nashrlarining birida bunday jummalarni o'qib qoldim: "Agar neft va oltin qazish sohasiga bir dollar investitsiya kiritasangiz, to'rt-besh barobar, bozordan narsa olib sotsangiz, yigirma o'ttiz foizdan bir barobargacha foyda keltirishi mumkin. Shu mablag'ni farzandlarini o'qitish uchun yo'naltirangiz, ming barobar bo'lib qaytadi..."

Darhaqiqat, ota-onaning muhim vazifalaridan biri — farzand tarbiyasi. Ta'lim-tarbiyaga erta e'tibor qaratgan ota-onalar bugun farzandlari rohatini ko'rib yashamoqda. Biz ushbu maqolamizda oddiygina harbiylar o'lasining egizak farzandlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Nega aynan harbiylarning farzandlari demogichimiz? Chunki davlatimiz tomonidan ularning o'g'il-qizlariga ham ko'plab shart-sharoit yaratib berilyapti. Xo'sh, ular bu imkoniyatlardan unumli foydalanyaptimi? Yangi O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarimiz o'y-xayollari nimalar bilan band?

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlarida kontrakt asosida xizmatni o'tayotgan kichik serjant Valijon To'rayev farzandlari ta'limiga alohida e'tibor qaratgan otalardan. O'tgan yili uning egizak o'g'illari Tohirjon va Zoyirjon harbiy xizmatchilar farzandlariga berilgan imtiyozdan foydalanib, yur-timizning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi.

Joriy yilda Tohirjon Murodillayev Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining axborot xavfsizligi, Zoyirjon Murodillayev esa Toshkent davlat yuridik universitetining davlat boshqaruvi yo'nalishi bo'yicha 1-bosqichini tamomladi.

Ayni paytda ilmga chanoq yoshlar yozgi ta'tilda. O'qish taassurotlari haqida so'ragan bo'lib, aka-uka bilan suhbatlashdik. Qiziqarli suhbatimiz davomida egizaklarning bolalik orzulari, kelajakdagi reja va maqsadlari, sevimli kitoblari haqida bilib oldik.

Ota-onam bolaligimizdan bizni yaxshi o'qishga qiziqtirib ulg'aytirdi, — deya so'z boshladi Tohirjon. — Otam xizmatda bo'lardi, onam bizni yetaklab maktabning tayyorlov kursiga olib borardi. Asli buxorolikmiz. Kogon tumanida eng zo'r deb tan olingan ixtisoslashtirilgan maktab bor. Onam doim bizga katta bo'lsangiz, shu maktabda o'qiydiz, deb ta'kidlagan. 2-sinfdan ixtisoslashtirilgan maktabda o'qishimizni davom ettirdik. Yaxshi o'qiddik. Shu maktabning yuqori sinfida bizdan uch-to'rt yosh katta bo'lgan egizak aka-uka bor edi. Bir kuni direktorimiz barcha o'quvchilarni yig'ib, aka-ukalarni maqtab gapirdi, hammamiz ulardan ibarat o'limizni kerakligini aytdi. Ular respublika fan olimpiadasida ishtirok etib, faxrli o'rinni qo'lga kiritgan ekan. O'shanda Zoyirjon ikkimiz ham bilimni, ota-onamizning faxrli farzandi bo'lishni ko'nglimizga tukkanmiz.

Akam matematikaga qiziqadi. Men esa tarixga mehr qo'ydim. 6-sinf-ga o'tgan vaqtimiz otamning xizmat joyi Qoraqalpog'istonga ko'chdi, — deya suhbatga qo'shiladi Zoyirjon. — Jonajon maktabimiz bilan xayrlashib, Nukus shahridagi 44-umumta'lim maktabida o'qishni davom ettirdik. Sinfda bilimni yig'itlar ko'p edi, sog'lom raqobat muhiti bizni yanada kuchli bo'lishga undardi. Fan to'garaklariga qatnash boshladik. Otam yetishmovchilik va o'g'ir sharoit tufayli oliy ta'lim muassasasida o'qiy olmagam. Lekin institutda o'qishni bir umr orzu qilgan. Shuning uchun doim bizga "Men o'qiy olmadim, lekin siz ta'lim olaman desangiz, kunu tun ishlashga ham roziman. O'qish yoki biror kasbning ustasi bo'lib, halol mehnat qilish kerak. O'qisangiz, birovdan kam bo'lmasiz", deb nasihat qilardi. Onam esa bizga orzu qilishni o'rgatgan. Har kech boshimizni silab, "Bolajonlarim, kitobdan bosh ko'tarmang, vaqtigingizni behuda sarflamang, ilm oling. Otangiz ikkimiz faqat maktabda o'qiganmiz, lekin mehnat qilib kam bo'lmadik, umidimiz sizlarsiz", derdi. Juda ko'p kitob o'qirdik, har yakshanba kunlari otam yoki onam, albatta, bizga yanbi kitob

olib kelardi. Kitob eng yaqin do'st, deyishardi.

Tohirjon va Zoyirjon bir-biriga ikki tomchi suvdex o'xshaydi. Bir qarashda ajratib olish qiyin. Lekin suhbatlashib, farqlarni sezish mumkin. Tohirjonning akalarga xos salobati bor. Qaror chiqarishda ham ko'proq aqlni ishga soladi. Zoyirjon esa aksi. So'zga chechan yigit. Bir-biriga mehribon, do'stona munosabatda ulg'aygan yigitlarga, ochig'i, havasiz keladi.

— Zoyirjon mening maslahatchim. Dunyo xabarlari bo'ladi, siyosiy vaziyat haqidagi yangiliklar bormi, ukamdan eshitaman, — deydi Tohirjon.

Zoyirjon akasining gapini ilib ketadi:

Akam egizagim bo'lganigami, ichki dunyosi menga begona emas. Men biror mavzu haqida qattiq bosh qotirayotgan vaqtim akam go'yo eshitgandek menga yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Hayotimizda kitob muhim o'rin tutgan. Timmay badiiy adabiyotlar o'qirdik. She'r yoldardik. Keyin esa o'qiganlarimizni ota-onamizga aytib berardik. Uyimizda fanlarga doir kitoblari juda ko'p. Endi esa kitob javonim huquqiy kitoblar bilan boyimoqda. Tarixdan ham voz kechilmayman. O'zbekiston tarixiga doir kitoblar o'qishni xush ko'raman. Yuridik universitetga kirganimgan so'ng o'qituvchimizning talabi bilan "Jinoyat va jazo" asarini o'qib chiqdim. Biz o'z og'irroq, yozuvchining o'kir qalami kitobxonni o'yashga, fikrlashga chorlaydi. Faxrlanib ayta olaman, akam bilan erishgan yutuqlarimiz zamirida kitobning o'rni beqiyos.

Hozir texnologiyalar asri. Sun'iy intellekt hayotimizga kirib keldi. Siz mo'jizalarga ishonasizmi? — deydi Tohirjon. — Ertaga ko'rinmas telefon orqali gaplashishimizga-chi? Qo'l mehnatiga ehtiyoj yo'qolib bormoqda. Yildan-yilga texnologiya rivoj topayotgan zamonada yashayapmiz. Shu bois, axborot xavfsizligi masalalari muhim ahamiyatga ega. Men tanlagan soha aynan shu masalalarni o'rganadi. Endigina 1-bosqichni tamomladim. Nasib qilsa, tanlagan yo'nalishim bo'yicha malakali mutaxassis bo'lishni maqsad qilganman. Bolaligimizda bo'sh vaqtimiz sport bilan o'tdi. Karate, boks, shaxmat bilan shug'ullandik. Hozir ikkovimiz ham biriyi tillarni o'rganish bilan mashg'ulmiz.

Egizaklar biz bilan bugungi yoshlar, ya'ni o'z tengqurlari haqidagi fikrlari, kelajak orzulari bilan o'rtoqlashdi.

Nukusdan Toshkentga kelgan vaqt-larimiz bu yerda yoshlar ancha ilgari ketganini sezdik, — deydi Tohirjon. — Intellektual salohiyati yuqori, bilim yoshlarni ko'rib, havas qildik. Ular har tomonlama mukammal bo'lishga intildik. Bir necha til biladi. Bularning bari yur-timizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik samarasi, albatta. Bizga cheksiz imkoniyatlar eshigi ochildi. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, bildirilayotgan ishonchni oqlaymiz.

O'n yildan so'ng men ofitserlar safida bo'lsam kerak, — deydi qat'iy ishonch bilan Zoyirjon. — Shunda orzularimdan biri ushaladi. Endi buyrug'iga maqsadlarga qarab harakat qilamiz. Rejalarni haqida aytishga odatlanmaganman. Sir bo'la qolsin.

Yoshlarimiz bilimni, izlanuvchan, o'z fikriga ega. Kichik serjant Valijon To'rayevning farzandlari yaqin kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishiga ishonamiz. Zero, mamlakatimiz yoshlari uchun barcha sharoit va imkoniyatlar bor.

Shohista ABDURAHMONOVA, jurnalist

"Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar"

Jobir ELOV, Mir Arab oliy madrasasi rektori:

— Non isrofu-kurlikdan kelib chiqadi. Hadisi Qudsiyda "Ey Odam farzand! Hamisha ovqatlanishga o'tirganingda qorni och bechoralar ham esingda bo'lsin. Shunda Allohning bergan ne'matlariga shukr qilish osonroq bo'ladi", deyilgan. Alloh yur-timizni tinch, dasturxonimizni to'kin qilib berdi, ne'matlarini iste'mol qilishimiz uchun salomatlik berdi. Shukr qilish o'rni bularni nima uchun isrof qilamiz? Inson barcha jonzot orasida aziz va mukarram qilib yaratilgani uchun ham unga nonday ne'mat ato etilgan.

Shuning barobarida "Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar", deb buyurilgan. Isrof qilganlar "shaytonlarning do'stidir" deb ta'rif qilinib, bunday noshukurlik uchun har ikki dunyoda jazo tayyorlab qo'yilgani ogohlantirilgan. Nafaqat non, balki hech bir narsani isrof qilmasdan ishlatish haqiqiy mo'minlik belgisidir. To'g'ri, ko'p qavatli uylarda yashayotganlarning boqarga moli yo'qki, qolgan-qutganlarni ularga yemish qilib bersa. Lekin o'sha uylarning barchasida non tashlash uchun alohida maxsus idishlar qo'yilgan-ku. Nega aziz ne'matlarini idishlarga emas, turli xil axlatlarga aralashirib yuborasiz? Nonning ushug'ini nam uvul qilib tashlash, katta gunoh, xato ekanini unutmang!



Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646. 43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 01:20